

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Musiq ta'limi kafedrası

G'ofurova Nodirabegim Arabjon qizi

**O'smir-yoshlarni "Ommaviy madaniyat" ta'siridan saqlashda o'zbek musiq
merosidan foydalanishning ahamiyati**

**5111100-musiq ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ish raxbari: musiq ta'limi kafedrası
o'qituvchisi Q.Nuriddinov**

Andijon – 2017 yil

**MAVZU: O'SMIR-YOSHLARNI "OMMAVIY MADANIYAT"
TA'SIRIDAN SAQLASHDA O'ZBEK MUSIQA MEROSIDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

REJA:

KIRISH

I- BOB. «OMMAVIY MADANIYAT» VA UNGA QARSHI MA'NAVIYAT
CHORALARI.

I.1. « OMMAVIY MADANIYAT»NING KELIB CHIQISHI VA UNING
SALBIY KO'RINISHLARI.

I.2. O'QUVCHILARGA "SHASHMAQOM" HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI
SINGDIRISH ORQALI MILLIY MUSIQA MEROSIGA MUHABBATNI
OSHIRISH.

II. BOB. II. BOB. MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA BAYRAM
VA MAROSIMLARNING O'RNI.

II.1. YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLARNING MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASHIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.

II.2. O'QUVCHILARNI AHLOQIY TARBIYALASHDA SINFDAN TASHQARI
TADBIRLARNING AHAMIYATI.

HULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

MUNDARIJA

ILOVA

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlatning bosqichma-bosqich qurilishi o'sib kelayotgan yosh avlodga milliy an'analar va xalqimiz xususiyatiga xos bo'lgan yangi rivojlanish yo'llarini ochib bermoqda.

Bugungi davrimiz, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizni, shu jumladan, ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an'analarimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Xalqimizning bebaho ma'naviy mulki bo'lgan milliy kuy-qo'shiqlarimiz hamda raqslarimiz muhim va qimmatli manbalardan biridir. Ularni keng miqyosda tadqiq etish masalasi hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda insoniyat g'oyat chigal va ziddiyatli zamonda yashayapti. Buning ustiga, ezgu g'oyalarni turli g'arazli manfaatlar yo'lida sohtalashtirishga intiluvchilar tobora ko'paymoqda. Oqibatda asl maqsadlar niqoblanib, azaliy qarashlarning ma'nosi atayin chigallashtirilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning « Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch» asari xalqimizning, avvalo, yoshlarimizni ana shunday tahdidlardan ogoh qiladigan , bugungi hayotda nima yaxshiyu, nima yomon ekani to'g'risida o'ylab ko'rishga , dunyoqarashimizni quvvatlantiradigan, hayot falsafasi va ilmiga tashnaligimizni bosadigan, yon-tevaragimizda bo'layotgan voqealar mohiyatini teran anglashiga imkon beradigan manba bo'lib hizmat qilayotganligi bilan g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil O'zbekistonimizning qisqa tarixiy davri shuni ko'rsatdiki, vayronkor, buzg'unchi g'oyalar birinchi galda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan. Buning oldini olish uchun jamiyatimizda, kundalik hayotimizda ta'lim-tarbiyaga, ma'naviy- ma'rifiy ishlarga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor.

« Barkamol avlod» yili davlat dasturida aniq belgilanganidek, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban « Ommaviy madaniyat» hurujlaridan himoya qilishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklangan.

Hozirgi davrda « madaniyat» soʻzining talqinida ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchisi uning lugʻaviy maʼnosi bilan bogʻliq boʻlib, unga muvofiq « madaniyat » kishilar ... yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklar majmuasidan iborat.

Ikkinchi yondashuv esa madaniyat deganda ijodiy, avvalo, estetik va koʻngil ochish sohalaridagi jarayonning oʻzi tushuniladi. Shu maʼnoda « madaniyat » soʻzi « uslub» (harakat shakli) soʻzining maʼnosiga yaqin turadi. Mazkur ikki talqinning mustahkamlanishi muhim bir mazmun kasb etadi, zero madaniyatni lugʻaviy va uslubiy talqinlari, bir tomondan ularning bogʻliqligini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotganiga ishora qiladi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi : -Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida eʼtibor berishimiz lozim. Yaʼni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan soʻng jamiyatda paydo boʻlgan gʻoyaviy boʻshliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot boʻlgan, maʼnaviy va axloqiy tubanlik illatlarini oʻz ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerakligi haqida birinchi boʻlib birinchi Prezidentimiz ogohlantiradi : -« Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl maʼnaviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bogʻliq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda », - deb yozadi Islom Karimov oʻzining « Yuksak maʼnaviyat- yengilmas kuch» asarida.

«Tabiiyki, « ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zoʻravonlik, individualizm, egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak boʻlsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anʼana va qadriyatlari, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi»

Bu borada xorijlik jamiyatshunos, madaniyatshunos, faylasuf va pedagog olimlardan Ortega-i-Gasset, U.P. Smolskaya, D.Bell, A.Ya.Fliyer, T.A.Fetisova, V.P.Rudnev, V.P.Shestakov, K.T.Teplis, Ye.N.Shaginskaya, O.Xaksli hamda Oʻzbekistonlik olimlar N.Umarova, M.Quronovlarning tadqiqotlariga murojaat qildik.

Siyosatshunos olim, professor Shuhrat G‘oyibnazarovning “Ommaviy madaniyat” kitobi ana shu ehtiyojga javoban yozilgani bilan e’tiborlidir. (Shuhrat G‘oyibnazarov. “Ommaviy madaniyat”. Toshkent, “O‘zbekiston” - 2012.) “Ommaviy madaniyat mavzusi vaziyat murakkabligi uchungina emas, balki bu madaniyatning turli jihatlari fanda bir xil aks ettirilmaganligi uchun ham dolzarb—dir”, deb yozadi muallif. Uningcha, bu hodisaning ta’sir doirasini yetarli baholamaslik, uni shunchaki oddiy ko‘ngilochar ish, “ikkinchi nav san”at”, tuturiqsiz, bema’ni, bachkana hodisa deb hisoblash noto‘g‘ri. Nitshe, Z.Freyd, X.Ortega-i-Gasset, E.Fromm, Ch.P.Snou, N.Berdyayev singari olimlarning fikr hamda qarashlariga murojaat etiladi.

“Omnia odami”ning paydo bo‘lishi tarixiga murojaat etiladi, bu boradagi antik davr mutafakkirlari, Uyg‘onish davri gumanistlari, XX asr ispan mutafakkiri Ortega-i-Gasset singari faylasufning qarashlari keltiriladi. “Ommaviy madaniyat” o‘z-o‘zidan “omnia” tushunchasi bilan bog‘liq va mazkur tushunchaning aynan XIX asr oxirlarida paydo bo‘lishi bejiz emas, kitobda, jumladan, Gassetning XIX asrda sivilizatsiya o‘rtahol insonga g‘am-tashvishga emas, ne’matlarga to‘la to‘kis hayotda yashash imkonini bergani, u tamaddun yutuqlari og‘ushida o‘zini ertaklardagidek sezib, ushbu ne’matlarning yaratilish mashaqqatlari haqida unutganligi, o‘z majburiyatlarini his etmay qo‘yganligi haqidagi fikrlarini keltiradi. Gasset afsus-nadomat bilan o‘z davrining g‘urur-iftixoriga sabab bo‘lgan maktablarda bolalar o‘z hayotini qanday qilib jo‘shqin, huzur-halovatda o‘tkazishga o‘rgatilgani, biroq inson hayotining ma’nosi, uning ham hayotda o‘z burchlari borligi uqtirilmagani; bolalar ongiga tamaddun yutuqlaridan faxrlanish tuyg‘ulari, zamonaviy texnika ko‘nikmasi singdirilgani, biroq ruh tarbiyasi unutilgani, shu bois zamondoshlarini ma’naviy qadriyatlar qiziqalmasligi haqida yozadi. Ushbu xavfga qarshi kurashning eng kuchli vositasi san’at deb bilamiz. San’at asari - kishi qalbiga olib boradigan eng qisqa yo‘ldir. Faqat yuksak qadriyatlarni targ‘ib qiladigan, insonni tuban illatlardan xoli bo‘lishga chorlaydigan, ruh va qalbni boyitadigan adabiyot va san’at asarlari yordamidagina “madaniyati buzilgan mamlakatlarning ayanchli qismatini chetlab o‘tish mumkin”.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi : Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga e'tibor kuchaytirildi .Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi .

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash , ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish , o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda .

Jumladan , O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan 1995-yil 20-oktyabrda chiqargan : « O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi Farmoni musiqa san'atini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 7-yanvardagi « Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida maktab ta'limi, ayniqsa , badiiy ta'lim mazmunini oshirish borasida yangi yo'nalishlarni ochib berdi. Zero, bu Farmonda ta'lim va tarbiya masalalari bilan bir qatorda «san'at maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, soha uchun o'qituvchilarni tayyorlash » asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan .

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti : Davlat ta'lim standartiga muvofiq o'quvchilarni milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirib borish, musiqa san'atining durdonalari, O'zbekiston bastakor va kompozitorlarining asarlari namunalari orqali milliy hamda jahon musiqalariga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish ham ko'zda tutilgan.

Yosh avlodning kamolotida barcha omillar qatori qo'shiq kuylash,raqs, folk lor ansamblini tuzish,bir so'z bilan aytganda musiqiy to'garaklar faoliyati hamda madaniy tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, raqs va musiqa san'atining

buyuk ijodkori tarixini har tomonlama o`rganish va bu borada chuqur izlanishlar qilib xalqimizga yetkazish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Kuy-qo`shiq inson ruhiyatiga ta`sir etib, u insonni faqat yaxshi sifatlarga chorlaydi. Bu haqda Ibn Sino shunday deydi : «San`at –mo`jizadir».Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san`at vositasidagina kirib borish mumkin.Barchamizga ayonki, kuy-qo`shiqqa, san`atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Maktabgacha ta`lim muassasalarida, umumta`lim maktablarining «musiqa madaniyati» darslari hamda musiqa to`garaklari faoliyatida, musiqa va san`at maktablari faoliyatlarida mashg`ulotlarning to`g`ri tashkil etilishi, bu fanga ikkinchi darajali qaramaslik, o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib qiziqarli mashg`ulotlar jarayonini tashkil etish, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish, milliy, an`anaviy, klassik, zamonaviy, estrada kuy qo`shiqlardan, raqslardan foydalanib mashg`ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo`lar edi.

I- bob. «Ommaviy madaniyat» va unga qarshi ma'naviyat choralari.

I.1. « Ommaviy madaniyat»ning kelib chiqishi va uning salbiy ko`rinishlari.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasida yurtimizdagi har qanday inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinayotgani va ular amalda o'zining ijobiy natijasini berayotganini alohida ta'kidladi. Ma'ruzada yoshlarni turli yovuz xavf-xatarlardan asrash borasida ham nihoyatda og'riqli bir masala kun tartibiga qo'yildi. "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim", deyildi.

"Ommaviy madaniyat" tushunchasi yaqin o'rtada biz uchun yangi tushuncha hisoblanardi. Biroq u G'arb olami uchun ancha tanishdir. Bu muammoga ilk bor O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z e'tiborini qaratib, o'zining «Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch» asarida shunday degan edi:«Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim... Chetdan biz uchun mutlaqo » "Ommaviy madaniyat" bu bizga chetdan kirib kelayotgan, o'zbekona qadriyatlarimizga mutlaqo yot ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan xurujlar yig'indisi", desa bo'lar ekan. "Ommaviy madaniyat"— murakkab hodisa."Ommaviy madaniyat"ning o'zbeklar ongi va qalbiga tajovuzi ancha oldin boshlangan. "Shum bola" filmini bir eslaylik. Unda bir Yevropalik Toshkentga kelib, o'zbeklarning bir tangasini olib, evaziga "oynai jahoni"dan yalang'och ayol suratini ko'rsatadi. Hozir o'sha janobning nevaralari bobolari kasbini davom ettirishayotir. Bu ishni industriyaga aylantirishdi. Uning nomini "ommaviy madaniyat", ya'ni hamma ko'rib, pul to'laydigan, instinktlarni uyg'otuvchi, hammabop, hammaga tushunarli madaniyat deb atashdi. Pulni ko'p o'ylamay, tez ishlatuvchi bir toifa bor. Ular – yoshlar. Demak, yoshlarning ko'zlari tushadigan, quloqlari eshitadigan hamma narsani egallash kerak. OAV, internet, o'yinchoq,

multfilm, geymxonalar, disklar, daftar muqovalari, futbolka suratlari, reklama, musiqa, slenglar va h.k. ”

Hozirgi mazmundagi ommaviy madaniyat XIX asr oxiri – XX asr boshida shakllandi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya(radio, kino, televideniye, ko`p nusxali gazetalar, suratli jurnallar, keyinchalik Internet)ning keskin rivoji bunga sabab bo`ldi. Ma`naviy, madaniy tovarlarni ishlab chiqarish industriyasi paydo bo`ldi. Biroq, aholining funktsional bilimlarida– ko`tarilish, ma`naviyatida esa pasayish kuzatila boshladi. Yana bir muhim jihat– ma'naviy zaminni ma'naviyatsizlik, ahloqsizlik, begona o`tlardan tozalash darkor. Loqaydlikning ijtimoiy ildizi nimadan iborat? LO–QAYD, ya'ni qayd etmaslik, e'tibor bermaslik, daxldorlikni his etmaslik, o`zini chetga olish – bugungi kunda xalqimiz orasida eng keng tarqalgan ijtimoiy illat bo`lsa extimol. Bilib qo`yinglar, tashqi g`oyaviy ta'sir ichki ma'naviy loqaydlik, zaiflik bor joyda ildiz otadi. Binobarin, ma'naviyatni pasaytiruvchi, ichdan yemiruvchi illat va nuqsonlarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olish muhim tarbiyaviy vazifa bo`lib qolaveradi.

Yoshlar dunyoqarashida sog`lom e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning ustivorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda:

- milliy istiqlool g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar bilan qurollanishi;
- hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o`z qarashlarini himoya qilishga o`rgatish;
- buzg`unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo`lishga tayyor bo`lishlari zarur.«Ommaviy madaniyat» G`arb dunyosida o`tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G`arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko`ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutahassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g`ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo`llanilmoqda. Chunki,

«ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. G'arb dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, «Bizga «To'qqizinchi simfoniya» (Betxoven) kerak emas!» yoki «Mona Liza»ni loyga qorishtiramiz!» kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar «ommaviy madaniyat» tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar. Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «pop-madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop-muzika», «pop-adabiyot» natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan. Chunonchi, «ommaviy madaniyat» namoyandalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa,

bu oddiy chiqindilar baayni arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, «san'at, madaniyat namunalari» qatoridan o'rin olar emish. «Pop-art»chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi. «Ommaviy madaniyat»da «Pop (ommaviy)-muzika» alohida o'rin tutadi. «Pop-muzika»ni «Yangi rok» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda. Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngil-ochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. 1970 yilda Kaliforniyaning Altamonte shahrida bo'lgan musiqa festivalida o'zini «pop-muzika» qiroli hisoblaydigan «Rolling Stounz» («Aylanayotgan tosh») guruhi kontserti ana shunday ur-yiqitlar bilan tugab, politsiya bu mojaro oqibatlarini bilan uzoq muddat shug'ullanishiga to'g'ri kelgan edi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy»liklarini ta'kidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar. Va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika»chilar san'atdagi demokratizmning, xalqchillikning

tantanasi, deb bilishadi. Aslida, ularning sahnada o'zlarini bezorilarday tutishi san'atni va san'atkorlikni yerga uradi. Bu esa hayron qolarli emas: chunki asl san'atni yerga urish - «Ommaviy madaniyat»ning dasturiy, ya'ni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan vazifalaridan biridir. «Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo'shiq matnlari esa, avvalo, she'riyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko'proq ko'chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarni, insoniy ezguliklarni kinoya, mazax qiladigan so'zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy she'riyat hamda asl xalqchil did, sog'lom ruhiyat, ma'naviyat o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. 1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan «Kendi» («Asal qiz») nomli romanini - nashrdan chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. «Kendi» qahramoni, «Asal qiz» deb ta'riflangan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh-ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. «Kendi» romani Amerika adabiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talablaridan ancha pastda turadigan, ammo «ko'ngilochar»lik mavzui muxlislarini oshufta etgan bu kitobga AQSh adabiyotshunoslari: «Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam», deya kinoya bilan baho berishdi. Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQShda Jon Rechi ismli yozuvchining «Tungi shahar» nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi tun - jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman «tubanlik va qabohat - inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir», degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan. Biz nega bu ikki romanni esladik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar - g'arbdagi «ommaviy madaniyat»ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, «Kim kuchli bo'lsa - o'sha haq» degan changalzorlar qonunini

poetifiklashtirish AQSh va Yevropa «ommaviy madaniyat»ida mana shunday asarlar ta'sirida keng ommalashdi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtasidagi nikoh - hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazar tutilsa, «ommaviy madaniyat» targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayolliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas. Shu o'rinda zarur bir izoh: «pop (ommaviy) madaniyat»ning namoyandalari va targ'ibotchilari «pop-adabiyot»ni unchalik tan olishmaydi. Ularning fikricha «adabiyot - bu so'z san'ati» degani. «Pop (ommaviy) madaniyat» esa san'atga, jumladan, «so'z san'ati»ga qarshi. Aniqrog'i, «san'atsiz so'z», ya'ni yovvoyi, dag'al, tarbiya, axloqni xush ko'rmaydigan «ko'cha so'zlari»ga moyil. Biroq, ular xohlaydimi-yo'qmi, aynan G'arb olamida bemaza qovunning urug'iday ko'payib, tomir otayotgan «ommaviy madaniyat» ta'sirida «Pop (ommaviy) adabiyot» ham tug'ilyapti. Va bu «adabiyot» «ommaviy madaniyat»ning tuban g'oyalari targ'ibotiga xizmat qilmoqda. «Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari), starizm (sub'ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish), xeppining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir. Yuqorida biz G'arbda «ommaviy madaniyat»ning tarixi, tug'ilish manbalari to'g'risida so'zladik. Hozir-chi? Hozirga kelib esa bu tamoyillar yanada g'ovlab, tomir otyapti. Masalan, «pop-muzika»ga xos o'sha ritmik «bit» (zarb), qo'shiq niqobidagi alahsirash, valdirashga yaqin didsiz «repp»lar ta'siri dunyo miqyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'atidan odamzotni uzoqlashtirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlarida «ommaviy madaniyat» tarqatayotgan «pornografiya» (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, qarangki, sud qarorlari asosida, birin-ketin olib tashlanayapti.

Hatto AQSh maktablarida «Yangi rok» musiqalari o'quv dasturlariga kiritilgan... «Ommaviy madaniyat» maktabining «natijalari» esa yaqqol ko'rinib turibdi. Masalan, AQShning ayrim maktablarida sodir etilayotgan portlashlar, bolalarning savdoyi, vas-vos kimsalar qo'lida qurbon bo'layotgani, yoshlar fe'lida kuchayib bora-yotgan agressivlik jahon ommaviy-axborot vositalari orqali hammaga ma'lum. «Ekkaningni o'rasan» deb shunga aytsalar kerak-da. Afsuski, yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arb-dagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga yeng shimarib harakat qilmoqdalar. AQShning taniqli siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy shunday yozadi: «...Madaniyat sohasida Amerika jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa AQShga jahonning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy ta'sirni ta'minlaydi. Ayniqsa, Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining to'rtidan uch qismini egallaydi. Uning ommabop musiqasi, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishlaridagi odatlari va hatto, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar». AQSh siyosati va mafkurasi namoyandalari o'z mamlakatlari manfaati, siyosati va turmush tarzini faqat kitoblar, publitsistik chiqishlar orqali targ'ib etish bilan cheklanib qolayotganlari yo'q. Dunyo xalqlarini «g'arblashtirish»-ga urinishlar quroli sifatida, masalan, «ommaviy madaniyat» vositalaridan, turli-tuman axborot tarqatish (reklama, matbuot, kino, televidenie kabi) yo'llaridan zo'r berib foydalanilmoqda. Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi «g'arbning muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining

talablari qat'iy bajarilishi kerak. Ya'ni «reklama»chilar va jurnalistlar davlatimiz, jamiyatimiz xavfsizligiga (jumladan, xalqni, yoshlarni ma'naviy aynitishga olib keladigan holatlarga) yo'l qo'ymasliklari kerak. Afsuski, bunday holatlar yuz berayapti. Qolaversa, dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy-aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning yemiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi. Iloji bo'lsa, mamlakatimiz ta'lim tizimining - maktablardan tortib to oliy ta'lim muassasalarigacha bo'lgan barcha bosqichlari o'quv dasturlariga ana shunday keng, yuksak malakali, ilg'or zamonaviy, ma'no-mazmunli, maxsus «Ogohlik» darslarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu o'ylab ko'riladigan muhim va jiddiy masaladir. San'atga qiziquvchi yoshlarimiz orasida chet el estradasiga taqlid qiluvchilar, pornografik suratlar madaniyatimizga zid. Yoshlarimiz orasida ilmga chanqoq bolalar ustidan kulish, ularni yakkalash holatlarini kuzatar ekanmiz, shunday talabalar bilan alohida tarbiyaviy ishlar olib borish kerak. Ochiq – sochiq kiyim kiyish, sugareta chekish, tungi bar, kafelarda o'tirgan yoshlarimiz ota – onalari qayerga qarayapti. Nega ularni bu holatlar tashvishga solmaydi. Bola – aziz, odobi undan aziz deyiladi dono xalqimizda. Farzandlarimiz bizning kelajagimiz, yurtimiz ravnaqi, uning taraqqiy etishi, ular jahonda yagona davlat ekanligini ko'rsatishimiz uchun qilinayotgan barcha sayi xarakatlarga hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, mas'uliyat bilan yondashishimiz kerak.

Globallashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga ta'siri, «ommaviy madaniyat» va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish usullari, shuningdek, madaniy transformatsiya yoxud inson ongini egallash uslublari, iqtisodiy tahdid: biznes tarmoq va to'rsimon bozor xavfi, musiqa va tarbiya, odam savdosi kabi bugungi

kundagi dolzarb muammolar atroflicha yoritilgan. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarimizning globallashuv jarayonining o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarini to'g'ri anglashida, ularni turli ma'naviy tahdidlar ta'siridan asrashga munosib xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Aytish joiz, ayni paytda ana shunday dolzarb muammolardan yana biri - bu globallashuv jarayonida til sofligiga tahdid masalasidir. Shukur Jabborov o'zining «Germenevtika - tushuntirish ilmi» nomli asarida bu masalaga ham alohida e'tibor qaratgan bo'lib, ushbu asarda bugungi kunda til bilan bog'liq muammolar ularni bartaraf etish yo'llari borasidagi aniq ilmiy xulosalar bilan birga muallifning shaxsiy fikr va mulohazalari o'rin olgan.

Afsuski, bu borada ayni paytda biz bartaraf etishimiz lozim bo'lgan ayrim kamchiliklar bor. Masalan, bugun har qadamda do'kon yoki reklama bannerlarida xorijiy tildagi yozuvlarni uchratamiz. Ayniqsa, oxirgi paytlarda «shoop», «fast food» kabi so'zlarga ko'p duch kelayapmiz. Aslini olganda bunday atama yoxud jummalarni o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash har tomonlama to'g'ri va o'rinli bo'lardi. Bu eng avvalo, davlat tilga hurmat bo'lsa, boshqa tomondan bu so'zlarni barcha uchun sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Bir qarashda ko'zimiz o'rganib qolgan, endilikda oddiy bo'lib tuyulgan bunday holatlar aslida e'tiborsizlik va loqaydlik mahsulidir. Bu ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyati va ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bugun ana shunday e'tiborsizlikka yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarimiz ko'lamini yanada kengaytirishimiz, umuman, har birimiz yon-atrofimizda bo'layotgan ana shunday voqeliklarga befarq bo'lmasligimiz lozim.

Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog'liq bo'lmagan ommaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;
2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko'rinishini o'zida namoyon qiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bo'lib, ularning «matbuot qiroli», «Buyuk shou tomoshachilari», «kino, TV, estrada yulduzlari» bo'ladi. Ommaviy madaniyat

kishilarni xayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. o‘zlari xam mavjud xayotni go‘yo sarob kabi tasavvur qiladilar. Ortega i Gasset ommaviy madaniyatning ta’sir doirasini taxlil etib, omma o‘ziga, shaxsga o‘xshamay qolishi, kimki boshqalarga o‘xshamasa, shulardek fikrlamasa taxlikada qolishini aytib, «Omma bu yo‘riq-yo‘nalishsiz oqim bilan suzayotgan odamlar. Shuning uchun ular qobiliyat imkoniyatlari katta bo‘lishiga qaramay, xech narsa yaratmaydi. Ommaviy odam axloqdan maxrum, chunki uning moxiyati, ongi burchiga itoatdadir», degan edi. Ommaviy madaniyat umumiy iste’molchilik extiyoji bilan bog‘liq. Buning asosida iste’mol talab tovar sifatida xaridorgir bo‘lish ma’naviy extiyoji yotadi. Oqibatda xozirgi zamon madaniyatidagi ma’naviy qadriyatlar tor doiradagi extiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chuqur ma’no-moxiyati, xotira cheksizligi «odatli», «umumiy» qimmatlar bilan, xaqiqiy ijod avvaldan ma’lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, saez TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o‘zining ijodiy qobiliyati milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy maxsulotlar» iste’molchisiga aylanib qoladi. hususan yoshlar uchun ommaviy madaniyatning xatarli oqibatlarini Prezidentimiz bir necha bor qayd etgan edilar. Jumladan, «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida: «Dunyoda bir qarashda beozor, siyosatdan xoli bo‘lib tuyulgan shunday mafkuraviy ta’sir vositalari xam borki, ularga kunda ko‘pda etarlicha e’tibor beravermaymiz», deb keyingi yillarda ko‘plab namoyish, etilayotgan jangarlik filmlar, yalang‘och asarlar yoshlar ruxiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini, ular insonni o‘zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo etishga qaratilganligini ta’kidlab,... xar qanday kasallikni oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet xosil qilinadi. Biz xam farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror topdirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur», deb ko‘rsatadi.

Bugungi kunga kelib, muayyan mamlakatni zabt etish, biror xalqni bo‘ysundirish vositalari tubdan o‘zgardi. Ilgari bu maqsadlarga erishish uchun qanchadan-qancha qurol-aslahalar, qimmatbaho texnika, minglab askarlar va

ancha-muncha vaqt ham kerak bo'lar edi. Hozirda esa biror mamlakat yoki xalqni bo'ysundirish uchun ommaviy axborot vositalarining o'zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo'ravonlik axborot orqali ta'sir qilish, odamlarni biror bir g'oyaga ishontirish, ongini boshqarish texnologiyalariga o'rin bo'shatayapti. Kuch orqali maqsadga erishish insoniyat tomonidan birdek qoralanadi, chunki bunda insonga jismoniy og'riq, shikast, moddiy zarar yetkaziladi. Ishontirish vositasida harakat qilayotganlarni esa biror narsada ayblash qiyin, zero, ular targ'ib qilayotgan g'oyalari ortida qanday manfaatlar yashiringanini bilish oson emas. Vaholanki, so'z, fikr, axborot orqali inson tafakkurini zabt etish ham xalq, mamlakat, hududni bosib olishning biroz madaniylashgan ko'rinishi hisoblanadi, biroq bunda istilochining kim ekani noma'lum bo'ladi, hatto aholi o'zini bosib olish uchun kim kurash olib borayotganini anglamaydi ham. Bu kurash yashirin ravishda, zimdan oshirilgani bois, unga uyushqoq holda qarshilik ko'rsatib bo'lmaydi, aynan shu omil bunday qarashlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Gegemoniyaning bu shakli "madaniy gegemoniya"(ustunlik, yo'l boshchilik) deb nomlanadi. Jahon miqyosida avj oldirilayotgan bunday madaniy gegemoniya kurashda aldanib qolmaslik uchun istilochilarning asl maqsad-muddaolarini bilish, qo'llanilayotgan uslub va vositalarni puxta o'rganish talab etiladi. Insoniyat boshidan o'tkazgan inqiloblarni tadqiq etish asosida va insonning fe'l-atvori haqidagi bilimlar negizida XX asrning 30-yillarida yangi nazariya paydo bo'ldi. Bu nazariyaning muallifi – italiya kompartiyasining asoschisi va nazariyotchisi Antonio Gramshi edi. Gramshianing fikricha, gegemoniya jamiyatning "madaniy o'zagi"ga tayanadi. Bu o'zak insonning hayot, yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini, bilim va tajribani, an'ana va ramzlarni o'z ichiga qamrab oladi. Madaniy o'zak qanchalik barqaror bo'lsa, mavjud tartibni saqlab qolishni ixtiyor etgan jamoaning irodasi ham shu qadar qat'iy bo'ladi. Madaniy o'zakning kuchsizlanishi yoki qo'porilishi esa jamoa irodasining yemirilishiga olib keladi va inqilob uchun zamin yaratadi. Shu tariqa, madaniy gegemoniyaga erishish uchun madaniy o'zakka tajovuz qilinadi. Buning uchun tanklarga snaryadlarni tiqish, samolyotlarga bombalarni joylashtirish, avtomatlarni o'qlash talab etilmaydi, balki

ko'p sonli kitob va risolalarda, jurnal va gazetalardagi maqolalarda madaniy o'zakni qo'poruvchi virus-g'oyalarni tarqatishning o'zi kifoya. Gramshi bu jarayonning qabih mohiyatini bilmaslik oqibatida aholining unga qarshilik ko'rsatmasligiga ishora qilib, bunday o'zgarishni "passiv inqilob" deb ataydi. Gramshi yashagan vaqtda bunday inqilob, asosan, ziyolilar ongida yuz bergan bo'lsa (chunki virus-g'oyalar bitiladigan adabiyotlar bilan birinchi navbatda ular tanishar edilar), hozirda ommaviy axborot vositalarining taraqqiy etilishi tufayli bunday inqilobni boshqa qit'alarda yashaydigan odamlar ongida amalga oshirish ham hech gap bo'lmay qoldi. Televizor har bir xonadonning to'rini egallagan, global axborot makoni shakllangan bugungi kunda, afsuski, madaniy gegemoniya uchun kurashdan, boshqacha aytganda, inson ongi va qalbi uchun kurashdan pana topish oson emas. Biroq, ishonchimiz komilki, bunday kurash usullari va vositalarini chuqur o'rganish ulardan himoyalash choralarini ishlab chiqishda qo'l keladi. Xo'sh, madaniy gegemoniya o'rnatishga, aniqrog'i, madaniy o'zakni kuchsizlantirishga shaylanganlarga Gramshi nima maslahat beradi? Tarixiy xotirani susaytirish, jamiyatdagi birdamlikka putur yetkazish, an'anaviy qadriyatlarni yemirish, xalqni ma'naviy ildizlaridan mahrum etish, sog'lom aqlni "o'chirish" kabi usullarni taklif qilgan Gramshi ro'yxatini uning zamonaviy "shogirdlari" yangi yo'nalishlar-axloqsizlikni targ'ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy hirslari, nafsini qo'zg'ash hisobiga "boyitdilar". Ko'rinib turibdiki, madaniy gegemoniya insonni mustaqil fikrdan mahrum qilish, uni o'zligini unutgan kimsaga, manqurtga aylantirish maqsadi yotibdi. Yangi ko'rinishdagi bunday mustamlakachilikning fojiaiy oqibati ham shunda. Bugungi kunda ayrim ijtimoiy jarayonlarni kuzatar ekanmiz, ular Gramshining madaniy gegemoniya haqidagi ta'limotiga uyg'un tarzda, uning ko'rsatmalariga mos ravishda kechayotganini tan olishga majbur bo'lamiz. Ayrim hollarda hattoki, bu jarayonlar Gramshi ta'limotiga tayangan holda maxsus ishlab chiqilgan va mohirona amalga oshirilgan, aniqrog'i, Gramshi nazariyasining qanchalik to'g'ri ekanligini tajribalarda sinab ko'rish uchun o'tkazilgan operatsiya emasmikan, degan gumonga ham borasan kishi. E'tibor bering: Gramshining nazariyasiga

ko'ra, madaniy gegemoniya o'rnatish uchun sog'lom aqlni bartaraf etish talab etiladi. Sog'lom aql "o'chirilgach", insonni aql bovar qilmas afsona va uydurmalariga ham ishintirish mumkin bo'ladi. Ayni paytda, jahonda keng yoyilayotgan ana shunday cho'pchak mafkuralardan biri "evrotsentrizm" deb ham ataladi. Nomidan ham ko'rinib turganidek, undan G'arbdan andaza olish, unga taqlid qilish taraqqiyotning bosh omili ekanligi uqtiriladi. Evrotsentrizm hammaboplikka da'vo qilayotgan mafkura bo'lib, unga ko'ra, barcha xalqlar bir hil taraqqiyot yo'lini bosib o'tadilar, faqat xozirgi kunda ular taraqqiyotning turli bosqichlarida turganliklari bois, bir-birlaridan farq qiladilar. O'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan jamiyatlarga nisbatan evrotsentrizm mafkurachilari "G'arb izidan bor – bu eng yaxshi dunyolaridan biridir", deya "maslahat" beradilar. Ko'pincha suhbat chog'ida ayrim ziyolilar noma'qul musiqa, noma'qul filmlarning, millatimiz ruhiyatiga, ma'naviyatiga zid urflarning yoshlarga, umuman odamlar ongi va qalbiga salbiy ta'siri haqida kuyunib gapirib qolishadi. Darhaqiqat, na ma'no na mazmun bo'lgan, insoniy hislardan ko'ra, ko'proq past instinktlarni qo'zg'ovchi qo'shiq, g'oyaviy bo'sh, hatto zararli film kabi "ommaviy madaniyat" namunalariga hayotimizda ko'p duch kelamiz. Balki ayrimlarning chetdan yog'ilib kelayotgan bunday "asar" larning yo'lini to'sish yoki o'z "san'atkor"larimizning ijod namunalarini badiiy ko'rikdan (o'ziga xos senzurdan) o'tkazish haqidagi fikri to'g'ridir. Ammo butun dunyoda baloi azimga aylangan salbiy ko'rinishdagi "ommaviy madaniyat" ning tarqalishi bunday yo'l bilan oldini olib bo'larmikan? Kishilarni "Ommaviy madaniyat" qulligidan buyruq yoki farmon bilan xalos etish mumkinmikin? Prezidentimiz ilgari surgan "g'oyaga qarshig'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish mumkin", degan fikrning mazmun-mohiyati teranligi va doimo dolzarbligi shunda.

"Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

«Ommaviy madaniyat» Gʻarb dunyosida oʻtgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni Gʻarbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (yaʼni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-maʼnosiga, maqsad-niyatiga koʻra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («gʻayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «ommaviy madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qoʻllanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, yaʼni maʼnaviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak isteʼdod va oʻlmas maʼnaviy-axloqiy gʻoyalar bayroqdori boʻlgan mumtoz madaniyatga, sanʼatga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnogʻi bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. Taassufli jihati shundaki, gohida gʻoyatda isteʼdodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targʻibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Agar «ommaviy madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy sanʼat»), «pop-muzika», «pop-adabiyot» natijalariga qarab hukm yuritadigan boʻlsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, maʼnaviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning oʻzi yoʻq. Jumladan, sanʼat - alohida isteʼdodlar tomonidan yaratiladigan maʼnaviy boylik, moʻjiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «ommaviy madaniyat» tarafdorlarining gʻashini keltiradi. Ularcha, hamma sanʼatkor boʻlishi mumkin. Hamma narsa sanʼat atalishi mumkin. «Pop-art» - (ommaviy sanʼat) shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

«Ommaviy madaniyat» tarkibidagi kishilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni eʼzozlashadi. Maʼnaviy dunyoni emas, maishiy-isteʼmolchilik his-tuygʻularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning maʼnaviy pozitsiyasi –maʼnaviyatni oʻldirish va «narsalarga qullik»ni ragʻbatlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan oʻtgan avlod uchun hayotning

ma'nosi - avtomobil, televizor, kompyuter va shunga o'xshash texnik vositalargagina ega bo'lishdir.

«Ommaviy madaniyat» da «Ommaviy musiqa» alohida o'rin tutadi. «Ommaviy musiqa» ni «Yangi rok» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat» dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda.

Xullas, G'arb jamiyati ma'naviy hayotida inqiroz tushkunligi tufayli buzg'unchilik, ommaviy nevroz, axloqsizlik, tajovuzkorik kabi holatlar namoyon bo'lib, tobora xatarli tus olmoqda. Zero, globallashuv jarayoni, zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir pallada Vatanamiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy me'rosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga bekamu-ko'st yetkazib berish, yoshlarimizni aqlli, dono, baxtli va barkamol etib tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda turli g'oyalar, hayotiy qarash va qadriyatlar to'qnash kelgan paytda shaxs mas'uliyati, u tanlaydigan ijtimoiy orzu-umidlarning ahamiyati beqiyos darajada ortadi. Faylasuf A.Ya.Fliyer taklifiga binoan "ommaviy madaniyat" yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

“Yoshlar submadaniyati” industriyasi;

Ommaviy ijtimoiy mifologiya; odamga murakkab qadriyatlar yo'nalishi tizimini joylashtirish; dunyoni ko'p qirrali tushunishini oddiylashtirish;

Ommaviy dam olishning tashkiliy turlarini, turli shoularni, qiziqish va dam olishni sanoat asosiga ko'chirish;

Sog'lomlashtirishga qaratilgan dam olish industriyasi;

Ehtiyojni qondirishni boshqarish va individual, shuningdek, jamoa foydalanadigan xizmatlar, takliflarni rag'batlantirish tizimini tashkil etish (reklama, imidjmeysterlik va xokazo).

Har xil o'yinlar, mexanik o'yinlardan tortib, elektron, kompyuter va boshqa vositalardan foydalanish.

Shunday qilib ommaviy madaniyat – bir o'lchamli hodisa emas. U o'ziga xos tur va darajaga egadir. Hozirgi zamon madaniyatshunosligida, odatda, “ommaviy madaniyat”ning uchta asosiy darajasini ko'rsatadilar;

Kitch – madaniyat (past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati)

Mid – madaniyat (“o'rtamiyona” madaniyat);

Art – madaniyat (ma'lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat).

“Kitch” nemischa “kitschen” olmoshidan hosil bo'lgan va saviyasi past, arzon va jo'n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san'at durdonalari soyasida paydo bo'ladigan bo'sh, tez unutiladigan madaniyat mahsulotlaridir.

Muammolarni cheklangan, hayotdan uzoq qilib tasvirlash, obrazlarni, g'oya va syujetlarni qolipga solish, mayda turmush tashvishlariga o'ralashib qolgan qatlamga mo'ljallangan madaniyat asarlarini yaratish.

Mid - madaniyatining qamrovi keng, darajasi ancha baland. U an'anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, “ommaviy madaniyat”ga bevosita taalluqlidir.

Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo'ljallangan “ommaviy madaniyat”dir. Uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an'anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

Bundan tashqari ba'zi bir mutaxassislar ommaviy madaniyatning yana ikki alohida turini – popmadaniyat va rokmadaniyatni ham ko'rsatadilar, chunki hayot ularning ham yashovchanligini hamda muayyan tabaqadagi kishilarning ongini egallaganligini ko'rsatdi.

AQShda bo'sh vaqt, ya'ni dam olishni sanoat asosiga ko'chirgan. Aholining badiiy jihatdan unchalik yuksak bo'lmagan talablarini qondirish (yoki ushbu talablarni shakllantirish) maqsadida ommaviy badiiy adabiyot (fantastika, sarguzasht, bulvar adabiyoti, “ayollar” romani) dunyoga keldi. Shuningdek, arzon-garov jangari, triller, melodrama va boshqa filmlarning g'oyasi va o'lchami bitta –

odamlarning amerikacha munosabatlarini qaror toptirish; musiqa janrida ham asosan ana shu maqsad kuzatiladi.

XX asrda jazning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan dunyo musiqa madaniyatini o'zgartirib yubordi. Jaz XX asr arafasida dunyoga keldi. Uning tomiri negrlarning an'anaviy madaniyatiga borib taqaladi. Musiqadagi ritmik pauzalarning kuchayib, pasayib turishi qora tanlilarning "sprichuels", regtaym va blyuz kabi o'ziga xos o'yinlarini eslatib turadi. XX asrda o'yin madaniyati mislsiz miqyosda tarqaldi. Jahonni egalladi. U bo'sh vaqtni o'tkazish vositasiga aylandi. Densing va diskotekaga sig'inish yuzaga keldi. Musiqa shaklining rivojlanishi, eskilarining yo'qolishi va o'yinda yangi stil usullarining kirib kelishiga sabab bo'ldi. 1920 yillarda "Charlston" modada bo'lsa, keyinchalik uning o'rnini "step", "chechetka", jazdan ajralib chiqqan irland jigisi keyinroq, 50 yillarda "rok-n-roll", 60 yillarda "sheyk" va "tvist" xitga aylandi va uning ommaviyligini ta'minlashda barcha vositalar ishtirok etdi: gramplastinkalar chiqarildi, televideniye va radiomahsulotlar tarqatildi. Bu "ommaviy madaniyat" tarqatilishidagi eng omadli tijorat loyihasi edi. Disko o'yin yo'nalishi hozirgi kunlarimizgacha yetib keldi, u juda ommaviy bo'lmasa-da, hali bor.

"Ommaviy madaniyat" bugun iqtisodiyotning eng daromadli tarmog'iga aylanib bormoqda. Uni hozir "qiziqishlar industriyasi", "tijorat madaniyat", "pop-madaniyat", "bo'sh vaqtdan foydalanish industriyasi" deb atay boshladilar. Ma'lumki, mehnatkashlarning ma'lum qismida bo'sh vaqt serob. "Ommaviy madaniyat" mazmunini boyitishni taqoza qiladi, chunki mamlakatimizda ishlab chiqarishning tobora sanoatlashishi, avtomatlashtirish jarayonida aholi o'rtasida "bo'sh vaqtni yopish ehtiyoji" ham oshib bormoqda. Ana shu jarayondan hosil bo'ladigan muammolarni hal etish ehtiyoji "ommaviy madaniyatni" yuzaga keltirmoqdaki, bu ayniqsa odamning ongiga, ya'ni adabiyot va san'atning barcha turlariga bevosita bog'liqdir. Keyingi o'n yillikda madaniyatni demokratlashtirishda kino, televideniye, kasseta, sport albatta (uning tomoshabinga taalluqli qismi) juda muhim kanallar hisoblanmoqda. Ular ayni paytda turli

toifadagi odamlarning to'planishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pincha ularni birlashtirgan istak – o'zlarini psixologik jixatdan bo'shatib olish istagidir.

“Ommaviy madaniyat” madaniy mollar bozoridagi tovarga aylanib, muayyan xususiyatlar kasb etdi. Avvalo u “oddiy” (buni jo'nlik deb atasa ham bo'ladi). Chunki ko'pincha bunday mahsulotlar “ko'cha odami”ga mo'ljallangandir. Ommaviy madaniyat o'z vazifasini to'la bajarishi, ya'ni ishlab chiqarishdagi asabiyliklarni olib tashlashi uchun u eng kamida qiziqarli bo'lishi lozim. Albatta, bunday madaniy mahsulotlar intellektual jihatdan yetarlicha rivojlanmagan odamlar ehtiyojini qondirishi mumkin va inson ongi, kechinmalariga ta'sir etadi. Shuning uchun ham “Ommaviy madaniyat”ning “eng qiziqarli” va hammaga tushunarli mavzulari – muxabbat, oila, karyera, jinoyatchilik va xo'rlash, sarguzasht, qo'rqinch va xokazolardir. Mavzular ekspluatasiyasidan uning egalari katta daromadlar olmoqdalar.

“Ommaviy madaniyat” baynalminal va milliy bo'lishi mumkin. Estrada musiqasi bunga misol bo'ladi: u hammaga tushunarli va barcha yoshdagilarga, bilim darajasidan qat'iy nazar, aholining barcha qatlamlariga o'ng'ay.

“Ommaviy madaniyat”ning badiiy qimmati xalq madaniyatidan pastroq bo'ladi. Lekin uning auditoriyasi kengroq, chunki u muallifli, u odamlarning shu daqiqadagi ehtiyojini qondiradi, har qanday yangi voqea va hodisalarga hozirjavob bo'ladi. Ma'lum vaqt o'tgach, ular o'z dolzarbligini yo'qotadi, eskiradi va modadan qoladi. Yuksak darajadagi asarlar va xalq madaniyati bunday qismatga uchramaydi.

Ma'naviyat- ahloqiy holat. Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmuidir.

- deya ta'rif beriladi izohli lug'atda.

Ma'naviy- ma'naviy; Ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq- deya ta'rif beriladi izohli lug'atda. Davlatimiz gullab yashnayotgan, rivojlangan davlatlar qatorida bo'lish arafasida turgan bir vaqtda hozirgi kundagi xorij davlatlaridan kirib kelayotgan turli xil rasm rusmlar bizning milliy qadriyatlarimiz, an'ana, urf – odatlarimiz bilan tarbiyalanib kelayotgan yoshlarimizga salbiy ta'sir

ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun bu yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol, ma'nan boy, aqlan sog'lom qilib tarbiyalash sohasida ish olib borayotgan o'qituvchilar oldida juda katta mas'uliyatli vazifalar turibdi. Har tomonlama yetuk dunyoqarashga ega bo'lgan yosh avlodni "ommaviy madaniyat" ta'siridan avaylab asrashimiz zarur. Dunyoqarashi keng bo'lgan yoshlar orasida kitob o'qish, uni muloxaza qilish uchun vaqt ajrata olishmayotganligi bugungi kunda sir emas.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jahonda tanitish, ular uchun yaratilgan barcha shart– sharoitlar, imkoniyatlardan foydalanib, asl o'zbek millatini qanday ekanligini ko'rsatish. Yosh avlodni har qanday xorijdan kirib kelayotgan urf – odatlar, ta'siridan asrab, ko'proq ular bilan avlod ajdodlarimiz, bobokalonlarimiz ma'naviyatini ular ongiga singdirishimiz darkor.

Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida turli xil ahloqiy buzqlik, egotsentrizm, zo'ravonlik, individualizm holatlari ta'siriga tushib qolayotganligi hammani tashvishga soladi. Madaniyat, ma'naviyat degan tushunchalarni ko'proq olib borishimiz uchun o'zimiz ularga o'rnak bo'lishimiz kerak.

Binobarin, ma'naviyatni pasaytiruvchi, ichdan yemiruvchi illat va nuqsonlarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olish muhim tarbiyaviy vazifa bo'lib qolaveradi.

"Immunitet" tushunchasining ijtimoiy- ma'naviy jarayonlardan kelib chiquvchi, tarbiya bilan bevosita bog'liq ta'rifini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ifodalaydi:

"Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning "da'vati" ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi."

Mafkuraviy immunitet- odam o'z hayotida amal qiladiga anglangan qoidalar yig'indisi:

Birinchisi –u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar;

Ikkinchisi- shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o`zlashtirilgan qismi.

Immunitet- lotincha “immunitas” sozidan olingan bo`lib, biror narsadan xalos etish, ozod etish demakdir. U turli zararli g`oyaviy ta`sirlardan himoyalovchi tizimdir.

Yoshlar dunyoqarashida sog`lom e`tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarning ustivorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda:

- milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar bilan qurollanishi;
- hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o`z qarashlarini himoya qilishga o`rgatish;
- buzg`unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo`lishga tayyor bo`lishlari zarur.

Biz yashayotgan XXI asrni ommaviy axborot vositalarisiz, zamonaviy, yangi texnologiyalarsiz, ayniqsa, televideniya va radiosiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Ko`plab san`atkorlarning hayoti, turmush tarzi, kiyinish madaniyati kabilar ularning repertuarlari bilan birgalikda teleradiodasturlarimizda keng yoritib borilayotgani barchamizni quvontiradi. Matbuot, televideniye, radio va to`y-hashamlarda san`atkorlarimizning o`ziga xos o`rni bor, desak, aslo mubolag`a bo`lmaydi. Ayniqsa, mumtoz san`atkorlarimizdan Ma`murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg`unboyevalarning o`zbek milliy san`atida tutgan o`rni va xizmatlari beqiyosdir.

Hozirgi paytda ana shu milliy an`analarimizni davom ettirib kelayotgan Munojot Yo`lchiyeva, Zulayxo Boyxonova, Matluba Dadaboyeva, Maxbuba Xasanova, Orolmirzo Safarov, Avazbek Mahmudov kabi ustoz san`atkorlarning san`atimiz rivojiga qo`shayotgan hissaları juda katta. Nega deganda, sahna- bu muqaddas tarbiya maskani, qutlug` qadamjo. Tomoshabin, u keksami yoki yoshmi bundan qat`iy nazar, sahnaga chiqqan san`atkorlarning mahorati, nafis xatti-harakatlari , ijro mahorati, sehrli raqs hamda ohangrabo kuy-qo`shiqlaridan

bahramand bo`ladi. Voyaga yetayotgan yoshlar esa ko`proq ularga o`xshagisi, ularning kiyinishi-yu yurish-turishi va o`zini tutishlaridan ibrat olgisi keladi. Buni yoshligini eslagan har bir inson yaqqol his qilishi qiyin emas.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida nomlari zikr etilgan mumtoz san'atkorlarimizning hayoti va ijod yo`li yetishib kelayotgan yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo`lib kelmoqda. Biroq bugungi kunda san'atkorlarimiz orasida milliy san'atimizdan ancha yiroq, san'atkor degan sharaflı nomga dog` tushirayotgan, yengil-yelpi kuy-qo`shiq ijrochilari ham yo`q emas. Ayrim san'atkorlarning o`zini qanday tutishini bilmay, ochiq-sochiq kiyinishini, bachkana xatti-harakatlar, behayolarcha qiliqlar qilishlarini qanday izohlash mumkin.

Kiyim-insonning ziynati shunday ekan, har bir inson u o`qituvchi-murabbiy bo`ladimi, tolibi ilm bo`ladimi yoki san'atkor bo`ladimi, avvalo, odob bilan, nafis did bilan chiroyli va tartibli kiyinishi lozim. Ayniqsa, sahnaga-elning oldiga chiqadiganlar bu masalaga yana ham e`tiborliroq bo`lishi kerak. Chunki ular o`zlarining san'atinigina emas, o`sha kiyim liboslarini ham namoyish qiladilar. Kiyimlarimizda esa olam-olam ma'no-mazmun mujassam. Milliy kiyimlarimizning ana shu ma'no-mazmuniga jiddiy putur yetmasligi kerak. Hozirgi kungacha milliy liboslarimizning shakli va mazmun-mohiyati jahon ahlini lol qilib kelayotgani ham bejiz emas, albatta.

Buyuk mutafakkir bobokalonimiz Nizomiddin Alisher Navoiy erkak kishilarning kiyinish madaniyati haqida quyidagicha fikr yuritadilar:

Er kishiga zebu ziynat hikmat va donishdur, ya'ni erkak kishining zebu ziynati, uning donoligi, aql-idroki bilan belgilanadi. Uning har bir xatti-harakati kishilar uchun ibrat namunasi bo`lishi kerak.

Ta'kidlash o`rinliki, o`zbek xalqi qadimdan o`ziga xos ma'naviyati, kiyinish madaniyati va milliy urf-odatlariga ega. Kiyimlarimizda ma'lum ma'noda, o`zbek xalqining mentaliteti, umuminsoniy qadriyatlari o`z aksini topgan. Xalqimizning milliy liboslarini dunyoning ne ne xalqlari orzu qilmaydi, deysiz. Bunday yuksak ma'naviy va madaniy qadriyatlarimizga hech qachon dog` tushurmasligimiz kerak.

Shunday ekan, san'atkor ayol kishi bo'ladimi yoki erkak kishi bo'ladimi bundan qat'iy nazar u ayni paytda ma'naviyatimiz targ'ibotchisi hamdir.

“Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”,- deydi dono xalqimiz. “Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz”- deya ta'kidlaydi birinchi Prezidentimiz mahalla haqida fikr bildirib.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi Qarorida yangidan tashkil etilayotgan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining asosiy vazifalaridan biri safatida ma'naviyatning mazmun-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish bilan birgalikda oila va mahalla bilan bog'liq tushunchalarni yosh avlod qalbiga ta'sirchan usullar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ'ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish ko'rsatilgan. Ushbu Qarorda bejiz oila, mahalla kabi xalqimizning serqirra qadriyatlariga alohida e'tibor qaratilmagan. Mamlakatimiz mahallalari qadimdan millati, yoshi, irqi, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, turli etnik guruhlarining bir joyda ahil va tinch-totuv yashashini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Qolaversa, fuqarolik jamiyatini barpo etishdek, ulkan maqsadni oldiga qo'ygan mamlakatimiz uchun tinchlik eng bebaho ne'mat hisoblanar ekan har bir oila va har bir shaxs bilan bevosita ish olib borayotgan ma'naviy salohiyatga hamda huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lgan maskan sifatida mahallaning o'rni va nufuzi oshib boraveradi.

Oila va mahallaning aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar hayoti va dunyoqarashiga qanchalik ta'sir etishini biz umumta'lim maktablari va kasb-hunar

kollejlari talabalarining bir guruhi o`rtasida o`tkazilgan so`rovnomadan ham bilib olishimiz mumkin.

So`rovlarda qatnashgan voyaga yetmagan respondentlarga “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda kimlarning ta`siri kuchliroq?” degan savol bilan murojaat etilganda, 77 foiz respondent bu borada ota-onaning ta`siri kuchliroq ekanligini ta`kidlashgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda mahalla instituti va keng jamoatchilikning o`rni hamda ta`siri haqida so`ralganda, ularning 12 foizi ushbu institutning ta`sirini yuqori deb baholagan. Shuningdek, 6 foizi ta`lim muassasasi va u yerda ta`lim beruvchilar degan bo`lsa, 4 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarni ko`rsatib o`tishgan. 1 foizi esa film ijodkorlari va boshqa asar mualliflari kabilarni belgilashgan.

Albatta, yuqoridagi javob natijalari ichida ota-ona va oilaning roli boshqa javoblarga qaraganda ko`pchilikni tashkil etishi bola uchun, eng avvalo, uning ota-onasi javobgar shaxs, qolgan boshqa mas`ullar esa ota-onaga bu borada yordamchilar sanalishini ko`rsatib turibdi.

Javoblarning tahlili shuni ko`rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda, avvalo, oilada ota-ona mas`uliyatini yanada oshirish, lozim bo`lsa, ular bilan individual ta`lim jarayonini olib borish zarurligini ko`rsatmoqda.

Bu borada jadid adabiyotining yirik vakili Abdurauf Fitrat to`xtalib o`tar ekan bolaning tarbiya olish bosqichlarini uch davrga bo`ladi:

- 8 yoshgacha bo`lgan davr. Bu davrda bola ota-ona va oilaning tarbiyasini aslicha o`zida o`zlashtirib oladi;
- 8 yoshdan 20 yoshga qadar bo`lgan davr. Shaxsning kamol topishida ta`lim tizimi, mahalla, keng jamoatchilik muhim o`rin tutadi;
- 20 yoshdan keyingi davr. Bu davrda tarbiya shaxsning o`ziga bog`liq bo`ladi.

Shunday ekan, shaxsning kelajakda jinoyatchi yoki huquqbuzar bo`lib yetishlasligi uchun avvalo, ota-onasi va oila a`zolari yetarlicha huquqiy ong va tarbiyaga, madaniyatga ega bo`lishi, ikkinchidan, jamoatchilikning kelajakka mas`ulligi talab etiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, uzoqni ko'zlab yuritilayotgan oqilona siyosat natijasida yurtimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Barcha jabhalar, jumladan, axborot va telekommunikatsiya sohasining jadal rivojlanishi ana shu izchillikning amaldagi samarasidir. Bugungi hayotimizni aloqa vositalarisiz tasavvur qilish mushkul.

Xalqimizda "Bir yaxshining bir yomoni bor" degan naql bor. Mobil aloqa vositalarini qulay muloqat turi deb baholadik. Ammo, bugungi kunda dunyo miqyosida globallashayotgan muammolardan biri mobil aloqa vositalarining yosh avlod tarbiyasiga hamda sog'lig'iga ta'sirida ko'rinmoqda.

Mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan sog'lom farzandlarni voyaga yetkazish, ularning baxtu saodati, farovon kelajai uchun hech kimdan kam bo'lmaydigan shart- sharoit yaratish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib kelmoqda. Shu ma'noda, mobil aloqa vositalari, telekommunikatsiya imkoniyatlaridan oqilona va to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Shu tariqa biz farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan har qabday g'arazli intilishlarga qarshi doimo hushyor va ogoh bo'lish vazifasini uddalay olamiz.

Musika san'ati turi barcha davr daholari e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Arastu « Musika ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musika shunday xislatga ega ekan , u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim », -deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda musiqa tengsiz ahamiyat kasb etadi. Musika san'ati Sharqning buyuk allomalari Beruniy , Forobiy , Ibn Sinolarni ham qiziqtirib kelgan. Bu haqda ular maxsus asarlar ham bitganlar. Masalan, Ibn Sinoning « Al- muddohil ila san'atal musiqiy » asari fikrimizning dalilidir. U mazkur asarda shunday yozadi : « Musika hayotbaxsh olijanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi. » Olimning musiqaning

tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir. Bundan tashqari, Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid « Kitob an-Najot », « Kitob ash-Shifo », « Donishnoma » kabi asrlarida ham musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan .

O`rta Osiyo olimlari Forobiy , Ibn Sino, Najmiddin Kavkabiy , Darveshali Changiy kabi allomalarning musiqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda .

Sharq va G`arb tillaridagi ko`pgina manbalarda Farobiyning musiqa nazariyasiga bag`ishlangan qomusiy xarakterdagi « Kitob al musiqiy al kabir » ( « Buyuk musiqa kitobi ») yaratilganligi va bu kitob so`nggi davrlargacha O`rta va Yaqin Sharqda musiqa nazariyasi va san`atining rivojlanishida muhim qo`llanma bo`lib xizmat qilganligi aytilgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o`zining « Halol yashash va halol mehnat qilish –burchimiz » asarida « Inson shaxsini, uning yuksak ma`naviy fazilatini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e`tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash oldimizga muhim vazifalarni qo`ymoqda »-deb uqtirib, yosh avlodni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida amalga oshiriladigan ishlarni yanada aniq belgilab berdi.

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz , albatta bu maqsadga musiqa san`atisiz erishib bo`lmaydi .Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o`rin tutib keladi. Mustaqillik yillarida , ulug` bobolarimizning ana shunday an`analarini davom ettirgan holda , mamlakatimizda musiqa san`atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Kuy-qo`shiq inson ruhiyatiga ta`sir etib, u insonni faqat yaxshi sifatlarga chorlaydi. Bu haqda Ibn Sino shunday deydi : «San`at –mo`jizadir».Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san`at vositasidagina kirib borish mumkin. Barchamizga ayonki, kuy-qo`shiqqa, san`atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Maktabgacha ta`lim muassasalarida, umumta`lim maktablarining «musiqa madaniyati» darslari hamda

musiqa to'garaklari faoliyatida, musiqa va san'at maktablari faoliyatlarida mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi, bu fanga ikkinchi darajali qaramaslik, o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib qiziqarli mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish, milliy, an'anaviy, klassik, zamonaviy, estrada kuy qo'shiqlaridan, raqslardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1.2. O'quvchilarga "Shashmaqom" haqidagi tushunchalarni singdirish orqali milliy musiqa merosiga muhabbatni oshirish.

Yosh avlodni ajdodlarimiz an'analari, qadriyatlari va madaniyati asosida tarbiyalash, ularda ma'naviy ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy musiqiy merosimiz, xususan maqomlar alohida o'rin tutadi. Ta'limni isloh qilishdagi konsepsiyalar, davlat ta'lim standartlari, qabul qilinayotgan qarorlar ham musiqa ta'limini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bugun-da maqom tushunchasini hamma ham tushunavermaydi, shunday ekan umumta'lim maktablarining yuqori sinflaridanoq maqom va shashmaqom haqida tushuncha berish dolzarb muammolardan biridir. .

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak juda ko'plab allomalarimiz maqomlar muammolari yuzasidan ilmiy risolalar yozganlar. Ulardan Abu-Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Kindiy, Xorazmiy, Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berganlar.

Abu-Nasr Farobiyning musiqa me'rosiga bag'ishlangan asarlarida ta'kidlanishicha "Kitob al musiqiy al kabir" asarining qiymati uning umumiy va chuqur g'oyalaridagina emas balki Farobiy davrida o'rta asr "musulmon" sharki madaniyatining gullab yashnagan davrida musiqa san'atining ahvoli haqida ham keng ma'lumot berilgan.

Maqomlar Sharq xalqlarining musiqa merosida juda katta o'rin tutadi. Bugunga kelib esa o'zbek xalq musiqa san'atining badiiy-estetik ta'lim-tarbiya doirasidagi holatini yaxshilash, bu borada muayyan ta'lim samaradorligiga erishish, mumtoz musiqa asarlarini inson ruhiyatiga ta'siri kabi masalalarini o'rganishiga S.Mannopov, A.Mo'minov, D.Kamolova, B.Karamatova, D.Djalolova, R.Tursunova kabi san'atshunos pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rin ajratilgan. Sanab o'tilgan mualliflarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarning musiqa haqidagi tushunchalarini rivojlantirish, musiqaning muhim ifodalovchi vositalarini qisman bo'lsa ham o'zlashtirish,

musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirishdan iborat bo'lgan muammolar ko'rib chiqilgan.

“Agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun san'atkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi”.

O'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritgach, milliy-ma'naviyatimizning haqiqiy egasiga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Xalq qo'shiqlari xalq va millatning ma'naviy musiqiy boyligi hisoblanadi. Har bir xalq asarining tarixi, uning anhanaviy ijrosi, xalq urf-odatlar va boshqa qadriyatlari bilan bog'lanishini va qaysi janrga mansubligini bilib ijro etish hamda undan axloqiy xulosalar chiqarib olish madaniyatini egallash o'quvchilarning xalq qo'shiqlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Buyuk qomusiy olim Forobiy musiqa asarlarining inson vujudi ruhiyati, umuman ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini, musiqa inson kayfiyatini o'zgartirishdan tashqari uning butunlay ma'naviy qiyofasiga tahsir etishini psixologik va estetik jihatdan asoslab bergan. Musiqaning inson xulqini mukammal qilishi haqidagi fikr musiqiy estetik tafakkur tarixidagi juda katta yangilik bo'lib, unda musiqaning tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyatiga alohida ehtibor berilgan.

O'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, maktab jamoasida o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan musiqa darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va umumiy tarzdagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning tahkidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab to'rlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita tahsir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zahiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltira oladi.

O'quvchi shaxsining shakllanishi va kamol topishida musiqaning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaralgan xalq mumtoz musiqasining tutgan o'rni beqiyosdir.

Milliy musiqa amaliyotida mahalliy uslublar va ularning mahalliy shevalarining boshqa madaniy- maishiy an'analari bilan bog'liqligi. Har bir mahalliy uslubda o'ziga hos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish, Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surhandaryo-Qashqadaryo, Xorazm uslublari hususiyatlari, mashxur musiqa janrlari (doston,katta ashulla, yallachilik v.b) ni bilish ularning mashxur ijrochilari , ashulachilar, bahshilar ,yallachilar, maqom haqida tushuncha, shashmaqom, cholg'u va aytim yollari. O'zbekiston sarhadida ustozona musiqaning ko'p tarmokli va mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va mosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastkorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish zarurdir.

Maqomlar xalq musiqasiga asoslanadi; ular negizida ko'pgina musiqa asarlari yaratilgan. Maqomlarning nazariy ham amaliy tomonlari bor.Ularning nazariy jihatlarini Sharq musiqasiga bagishlangan risolalarda o'z ifodasini topgan. Ma'lumki o'zbek-tojik maqomlari tom ma'nodagi nota yozuvi bo'lmagani sababli,

ustoz sozanda va honandadan shogirdga og`zaki o`tib, bizning kungacha yetib kelgan. O`tmishda turli shakllarda yashab kelgan maqomlarning amaliy jihatlarini bizgacha yetib kelgan o`zbek-tojik maqomlari yo`lidagi birdan-bir janr – Shashmaqom ko`rinishida tasavvur etishimiz mumkin. Shashmaqom o`zbek-tojik xalq musiqa asarlari asosida yaratilgan, 250 ga yaqin kuy va ashulalardan iborat va shu xalqlar musiqa merosining salmoqli qismini tashkil etadi. Shashmaqom masalasi musiqa madaniyatimiz tarixida juda kam o`rganilgan sohalardandir. Uni o`rganish, nazariy tahlil qilish ishi esa, yuqorida aytilgandek, eng murakkab masalalardan biridir. Manbaalarni o`rganish shuni ko`rsatadiki maqomlarning ko`p yillik tarihi bo`lsada, Shashmaqom O`rta Osiyoda yashab kelgan maqom yo`nalishlarining eng so`nggi formasidir va bundan tahminan ikki-ikki yarim asrlar ilgari shakllangan. Turli tushunchalar ifodasi bo`lgan “maqom” iborasi musiqa lad uyushmalari ma`nosida keladi. Bu tushuncha turli davrlarda yashab kelgan hamma maqom shakllarida ham o`z mazmunini birdek saqlab keldi. Shuning uchun Shashmaqomni ham o`tmishda qo`llanib kelgan “maqom” tushunchasi bilan birgalikda, uning tarixiy shakllanish protsessi aspektida qarab chiqish alohida ahamiyatga ega. Maqomlarda turli davrlarda bo`lib o`tgan tarixiy voqealar, xalqlarning urf-odati, etnografiyasi o`zining sezilarli izini qoldirdi. Shashmaqomni o`zbek-tojik xalqlari musiqa janrlari qatorida, bir ovozli (unison) musiqa asari sifatida ijro etib kelindi.

O`sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada musiqa muallimlarini tayyorlashda asosiy e`tibor ularni ma`naviy va ma`rifiy jihatdan yetuk bo`lishlariga qaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, ayniqsa musiqani, xalq qo`shiqchiligini o`rgatish jarayonida badiiy ijodkorlikni tarbiyalashga qodir bo`lgan mutahassislarni tayyorlashga e`tiborni qaratish o`ta muhim vazifalardan biri bo`lib hisoblanadi.

Biz musiqa sir asrorlarining qonuniyatlariga tayangan holda bo`lajak musiqa muallimlarini tayyorlash jarayonida asosiy e`tiborni ularning ma`naviy va ma`rifiy tarbiyasiga qaratishni muhim vazifalardan biri deb

hisoblaymiz, zero, bu jarayon “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurasda yetakshi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda musiqa ijrochiligimizda asriy qadriyatlarini, musiqiy merosimizni tiklash, o'rganish, rivojlantirishga e'tiborni qaratilayotganligi quvonarlidir.

Maqom san'ati ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado-ohanglar, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan.

Maqom- arabcha «joy», «o'rin», «makon», musiqa tushunchasida esa sholg'u asboblarida tovush hosil etiladigan joy, ya'ni aslida parda ma'nosini bildiradi. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad-tonallikni, hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ham ifodalaydi. "G'iyosul-lug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin o'tmish olimlarining mulohazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom – pardai surudro go'yand" – Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi». Bu yerda kuy va ashulalar boshlanadigan parda hamda ular harakat etadigan lad tovushqatorlari hisobga olingan albatta. Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy-nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy; Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida shuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. Shuni qayd etish lozimki musiqa nazariyasi hamma Sharq xalqlarida ba'zi tafovutlarni hisobga olmaganda deyarli bir xil mazmunda bo'lgan. Hatto maqomlar, sho'balar nomi ham o'xshash edi. Lekin, ularning musiqiy mazmuni har bir xalqning o'ziga xos bo'lib, bir-biridan tubdan farq etgan. O'tmishdagi musiqiy nazariy risolalarda O'n ikki maqom (Duvozdah maqom) majmuasi va unga kirgan 24 sho'ba va olti ovoza haqida mulohaza yuritiladi.

Ma'lumki, Temur davridan boshlab, to XVIII asrgacha yaratilgan musiqa risolalarida, adabiy, tarixiy va badiiy manbalarda maqomlar ustida ijodiy ish olib borgan sozanda-bastakorlar, ular yaratgan kuy va ashulalar nomlari keltiriladi, ularning qaysi maqomga tegishli ekani, doira usullari haqida gapiriladi. Musiqa risolalarida keltirilgan o'n ikki maqomlarning pardalari olti maqomdagi shakligi deyarli mos keladi yoki ular juda XVI-XVII asr olimlaridan Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiy kabi olimlarning risolalarida Buxoro xonligi davrida joriy etilgan o'n ikki maqom va ular asosida kuy ashulalar bastalagan san'atkorlar haqida gapiriladi.

O'n ikki maqomning Shashmaqomga munosabati masalasiga kelsak ulardagi maqom va sho'balar nomi ko'pincha bir xil. Bu esa O'n ikki maqomdagi ayrim maqom va sho'balar olti maqomga birlashtirilib, yaxlit turkum holiga keltirilganidan darak beradi.

Shashmaqom tarkibida O'n ikki maqomdagi nomlar ushrashini hisobga olib, bu yerda O'n ikki maqom va ularning sho'balarini sanab o'tamiz. O'n ikki maqom majmuasiga quyidagi maqomlar, ularning ma'lum ko'rinishlari-ovozi va sho'balar kiradi: Ushshoq, Navo, Busliq, Rost, Husayniy, Hijoziy, Rohaviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzruk.

Navro'z, Salmak, Gardoniya, Gavasht, Moya, Shaxnoz. O'n ikki maqomning sho'balari quyidagicha ataladi: Dugoh, Segoh, Shorgoh, Panjgoh, Ashiyrar, Bayotiy, Navro'zi Arab, Navro'zi Xoro, Navro'zi Bayotiy, Hisor, Nuxuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarka', Rakb, Navro'zi Sabo, Humoyun, Zovuliy, Isfaxonak va Ro'yi Iroq, Bastai Nigor, Nihovand, Javziy, Muxayyar. Maqom san'ati o'zining ko'p asirlik tarixiga ega. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, maqom kuylarining ibtidoiy shakllari eramizdan avvalgi uzoq davrlar musiqa madaniyatiga borib taqaladi. Bunda xalq musiqasining kuy-ohang va ritm-usul bobida erishgan natijalari murakkab maqom san'atining shakllanishiga ta'sir ko'rsatganligi e'tirof qilinadi.

O'n ikki maqom sistemasi va shakli. Maqom san'ati tarixini o'rgatishda O'rta asrlar XIII-XVIII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson Ozarbayjon xalqlarida o'n

ikki maqom (duvozdah maqom) taraqqiy etgan. O'n ikki maqom haqida ma'lumotlarni XIII-XVIII asrlarda yashab ijod etgan olimlar N.K.Buxoriy va D.A.Changiy o'z asarlarida aks etgan. Ammo, mutahassislarning fikricha, bizga qadar yetib kelgan maqom turlari (Shashmaqom, Xorazm, Fargona –Toshkent maqom yllari) aynan shu O'n ikki maqom asosida shakllangan.

Maqomlarning yaratilishi juda qadim zamonlarga borib taqalsada, biz uning O'n ikki maqom shaklida musiqa risolalarida berilgan mulohazalarga suyanib sharxlaymiz. Ular turli shakllarda va miqdorda yashab keldi (O'rta Osiyoda ular dastlab 10, keyinchalik esa 12 va 6 maqom shakllarida bo'lgan).

O'n ikki maqom O'rta Osiyo xalqlari musiqasida va Xurosonda qariyb Shashmaqom shakllangan davrgacha, yaxlit xolda yashab keldi. Shuning uchun ham XV-XVIII asrlarda yaratilgan musiqa oid nazariy risolalarda O'n ikki maqom masalasi asosiy o'rin tutadi. Maqom tushunchasi so'nggi davrlardagi ta'rif bo'yicha ham "ijro etiladigan kuy va ashulalarning lad asosi" bo'lib qolaveradi. Musiqa risolalarida "maqom", "parda" iborasi bilan ham ataladiki, bu tovushlar hozirgi zamon musiqa nazariyasida ladni bildiradi.


O'n ikki maqom yoki parda o'n ikki turli lad va ularga mos keluvchi musiqa asarlari majmuasidir. Maqomlarning boshlanish pardasi ham yuqorida aytilgandek, ularning o'zlari mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan ataladi. Shuni ham aytish kerakki, O'n ikki maqom hamda maqomlarning boshqa turlardagi musiqa asarlarida, ularning asosiy lad qurilmalari chegarasidan chiqish xollari tez-tez sodir bo'lib turadi.

Maqom va jamiyatning boshqa hodisalari kabi davrning ijtimoiy, badiiy – estetik talablariga va ehtiyojlariga bogliq bo'lgani xolda katta o'zgarishlarga uchraydi. O'n ikki maqom shakli Shashmaqom shakllanganiga qadar yashab keldi.

Shashmaqom, taxminan, XVIII birinchi yarmida uzil-kesil, o'zbek-tojik xalqlarining mustqil musiqa janri sifatida yuzaga keladi. Bunday tahmin etilishiga sabab shuki, O'rta Osiyoda XVIII asrgacha yozilgan musiqa risolalarida O'n ikki maqom ustidagina gap boradi. XIX asrlarning birinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoda Shashmaqom ashula bo'limida aytilgan she'r tekstlarigina o'z ichiga

olgan to'plam yuzaga kela boshladi. Bulardan bittasi Buhoro amiri mangit Nasrulloxonga (1826-1860) bagishlangan. Bunday asarlarning qolganlari esa Shashmaqomning Horazmda tarqalgan davrlari (XIX asr 1 yarimlari)da ko'chirilgan edi.

Shashmaqomga : Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari kiradi. Olti maqomning har biri juda katta hajmdagi tsikllik asarlar bo'lib , ularning xar biri ichida 20-44 gacha katta va kichik maqom yo'llari bor. Lekin , maqomlarning xalq orasida mashxur bo'lgan (cholg'u, ashula va surnay) yo'llari bilan qo'shib xisoblaganda ular juda katta sonni tashkil etadi. Hozirda nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg'u va ashula qismlari 208-250 tagacha boradi.



“Maqom” atamasi arabchadan olingan bo‘lib, “o‘rin”, “daraja”, “martaba”, “manzilgox” kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Maqom-bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg‘u kuy va ashulalar majmuasidir.

O‘zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud bo‘lib, ular quydagicha nomlanadi:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari)

2. Xorazm maqomlari


3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari

Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan.

Shashmaqom oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatadi. Maqom cholg‘u kuy va aytim (ashula) turkumlari shu mukammal pardalarning ma‘lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi. Shashmaqomdagi xar bir maqom ikki yirik bo‘limdan-cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llaridan iborat bo‘lib, ularni “ustoz shogird” an‘anaviy maktabida tahsil ko‘rgan malakali kasbiy cholg‘uchi va ashulachi-xofizlargina ijro etadilar. Maqomlar asosan “og‘zaki uslub” vositasida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Sharq olimlari tomonidan o‘ziga xos musiqiy “nota” yozuvi yo‘llari ixtiro etilgan bo‘lsada ular amaliyotda keng joriy bo‘lmagan.

Maqomlarning besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlar XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX-asrning 20-yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar-hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘aniylar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini nota yozuvlariga ilk bor tushiradi. Akademik Yunus Rajabiy (1897-1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor -50-yillar va 60-70-yillar davomida nota yozuvlarida bosmadan chiqardi.

Shashmaqom-Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab manaviy-marifiy sohaga katta o'rin berildi. Xalqimiz manaviyatining asosi sifatida milliy istiqlol g'oyasi va uning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Uzluksiz talim tizimidagi barcha predmetlar qatori musiqa sanati o'ld fanlarning ham asosiy manaviy mezonini milliy mafkuraviy o'zlik, ma'naviy kamolot, madaniyat va yuksak tarbiya tashkil eta boshladi. Musiqa sanati ham barcha san'at turlari singari insonning ruhiyatini, voqiylikning yuz berish holatlarini ifoda etuvchi vosita idrok etishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Hususan, bastakor malum bir musiqa asarini yaratishda, malum bir obrozlarni ifodalashda shu obrozga yaqin bo'lgan juda ko'plab xususiyatlarni umumlashtiradi va uning hyech qachon tilga olinmagan qirralarini yoritib berishga harakat qiladi. Bunday umumlashtirishlar orqadi bastakor turli tabiat manzaralarini, odamlarga xos tipik xususiyatlarni, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, kishilar qalbida shodlik, xursandchilik uyg'otadigan yoki aksincha ularning qalbini larzaga soladigan voqiyliklarni ifodalab beradi.

Tarixchilar bo'lib o'tgan voqiyalarni tarixiy faktlar asosida, adabiyotchilar turli badiiy obrozlar orqali, musavvirlar xilma-xil buyoqlar va tasvirlar orqali ifodalab berganlaridek, bastakorlar bularni tavush buyoqlari ifodalab beradilar. Musiqa asarlarining muhim tarbiyaviy ahamiyati ham shundaki ular kishilarning aqliy qobiliyatini ongini ustirishga, irodasini mustahkamlashga, didini shakllantirish va takomillashtirishga, hissiyotini yorqinlashtirishga o'z imotsional tasirini o'tkazadi.

Mumtoz musiqa inson moddiy va manaviy turmush talablari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turgan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi musiqa ohanglarida aks etib kelingan. Bo'lajak bakalavrlarga mumtoz musiqani o'rgatishning o'ziga xos yullarini tarbiyalashda cholg'u fanlari va ularda yani dars jarayonida cholg'u sozlari va xususan ularda chalinadigan mumtoz kuylarning alohida o'rni bor. Zero cholg'u sozlarining birida professional darajada chala bilish, o'zbek sozlarining nomlari va ularga xos xususiyatlardan yetarlicha malumotga ega bo'lish har bir musiqa mutaxasisi uchun birinchi darajali zarurat hisoblanadi. Cholg'u sozida kuy ijro etishni bilmaydigan, mumtoz musiqani miyyoriga yetkazib ijro eta olmaydigan musiqa mutaxasisi xozirgi kun talabiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham bo'lajak musiqa bakalavrlarini tayyorlashda cholg'u sozi ijrochiligi ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri hisoblanadi. Cholg'u sozlarini o'qitish uslubiyoti buyicha darslik va o'quv qo'llanmalarining keyingi yillarda, xususan mustaqillik yillarida ko'plab chop etilishi va uni o'qitish metodlariga bag'ishlangan ilmiy maqola va manografiyalarning yuzaga kelishi ham shu zaruriyatning isboti desa yanglishmagan bulamiz. Cholg'u ham musiqaning ajralmas bir qismi bo'lib, biror qo'shiq yo'qki cholg'usiz to'la mukammal holda vujudga kelmaydi. Musiqiy ohanglarda uning ijodkori hisoblangan xalqning yoki yelatning sho'x va hazil, o'ynoqi va mungli ichki nidolari mujassamlangan. Mumtoz musiqada kishilar o'rtasida ro'y beradigan insoniy-axloqiy va tarbiyaviy munosabatlar o'z ifodasini topadi. O'tmish ajdodlarimiz katta yig'inlar, xalq bayramlari va sayllari, to'y-marosimlarni

musiqasiz tashkil qilmaganlar, chunki bu yirik anjumanlarda yangragan har bir cholg'u kuyi, ijro etilgan qo'shiq-ashula yoki raqs anjuman ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy tasir ko'rsatgan. Ananaviy cholg'u musiqasi xalq va mumtoz cholg'u kuylari va asarlaridan iborat bo'lib, asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, madaniy-manaviy boyligiga aylangan.

O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa cholg'ulari va musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. O'zbek cholg'u musiqasi barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va ananalarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ugbu musiqaning ajoyib namunalari o'zining rango-rang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam shavq-zavq va huzur baxshida etmoqda. Insonlarning tashqi dunyoga tarbiyaviy munosabatini shakllantirishda musiqa va cholg'u musiqasining vazifasi insonning tasirchanlik kayfiyatini boyitish bilan uzviy bog'liqdir. Musiqa tasirida shakllanadigan tarbiya insonning estetik olamini ham ruhiy olamini ham birdek qamrab olgan.

O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi xalq cholg'u musiqasiga qaraganda kuy rivoji shakl murakkabligi va ijro uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. O'zbek mumtoz musiqasi asosan bir ovozli monodik uslubda yozilganligi va unda bezaklarga katta o'rin berilganligi sababli ko'proq uchinchi barmoqni ishlatish udum bo'lgan. Zero to'rtinchi barmoqda nolani chiqarish anchagina murakkablik to'g'diradi. O'zbek mumtoz musiqasida ilgari foydalanib kelingan diatonik tavush qatorlar o'rnida xromatik tavush qatorlardan keng foydala boshlanishi munosabati bilan, yuqori registrlarda chalish imkoniyati kengaydi va bu yangi-yangi applikatura holatlarini musiqa ijrochiligiga olib kirdi Cholg'u sozining imkoniyatini kengaytirdi.

O'zbek musiqachilari nafaqat bir ovozlikda, balki ko'p ovozlik asarlarni ham ijro eta boshlashi, chet el kompozitorlarining ko'p ovozlik asarlarini ijro etishlari tufayli applikatura jihatidan ham yangi-yangi holatlar yuzaga kela boshladi. Millatimizga xos xalq an'alarida xalqimizning tarbiyasi, odob-axloqi, musiqiy salohiyati qadimdan o'z ifodasini topib kelgan. O'zbek musiqa sarchashmalarining

munosib namunasi bo'lib, bu milliy bisotning haqiqiy javohirlariga aylanib qolgan mumtoz musiqamiz va mumtoz asarlarimiz milliy qo'shiqlarimizni yanada yuksaltirish madaniy siljishlarimizning asosiy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi. Garchand sobiq ittifoq davrida ham mumtoz musiqamiz asosida xalqimizning madaniy rivoji, tarbiyaviy o'rni haqida ko'plab sayi harakatlar qilingan, ilmiy maqolalar chop ettirilgan, ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada bu intilishlarning tub mazmunida eskicha mafkuraviy g'oya ustunlik qilib turar edi. Milliy istiqlool keng quloch yoya boshlagan hozirgi kunda bu sohadagi ishlarni yanada jonlantirish, o'zbek mumtoz cholg'u musiqasini qayta tiklash va jonlantirish keng yulga quyildi.

Inson hayotida musiqa cholg'ularining yaratilishi bevosita ushbu cholg'u orqali ijro etiladigan kuylarni ijod etishga undaydi. Bizning xalqimiz xilma-xil cholg'ularga ega bo'lib, o'ziga xos cholg'u musiqasini yaratgan. Bu cholg'ular tovush chiqarish xususiyatlari buyicha torli (torli chertim, torli plektor, torli kamonli va torli urma), puflama damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri bilan qoplangan va o'zi sado beruvchi) cholg'ular guruhi va turlariga bo'linadi. Har bir cholg'u o'z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakterli xususiyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek musiqa cholg'ulari an'anaviy (nay, sibizg'i, qo'shnay, g'ajir nay, surnay, bulaman, karnay, tanbur, dutor, dumbira, qonun, qubiz, sato, chang-qubiz, doyra, nag'ora, doul va boshqalar) va qayta ishlangan (g'ijjak, qashqar va afg'on ruboblari, chang, ud) xillariga bo'linadi. Bu cholg'ularning har biri ijro etiladigan musiqa asari xususiyatlari va vazifalariga qarab yakkasoz yoki malum ansambl tarkibida ishlatiladi. Shu tufayli an'anaviy yakkasoz va ansambl ijrochiligi yuzaga kelgan. O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi xalq cholg'u musiqasiga qaraganda kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro uslubining murakkabligi bilan ajralib turadi. Uning janrlari tarkibi ham yirik va murakkab cholg'u kuylari, asarlari va turkumlaridan iborat. Bular yirik cholg'u usullari (doira yoki nog'ora cholg'ularida ijro etilgan), cholg'u kuylari (yakkasoz yoki ansambl uchun muljallangan), yirik cholg'u asarlari, masalan, Chuli iroq, Munojot, Tanovar, Aliqambar, Qo'shchinor, Qo'shtor, Yovvoi Chorgoh

(yakkasoz uchun muljallangan, masalan, g'ijjak, dutor, tanbur, nay, surnay, qonun , chang) cholg'u turkumlari va maqom cholg'u asarlari turkumlari, jumladan, Nog'ora bayoti, Dutor Bayoti, Duchava, Eshvoy, Surnay Navosi Ajam taronalari, Mushkuloti dugoh va boshqalar.

Musiqiy cholg'ularning kelib chiqishi, ishlatilishi va o'zaro muvofiqlashuvi ularning taraqqiy yulida sozandalik sanatining o'tmishdan yuzaga kelishida va ushbu sanatning rivoj olishiga olib keldi. Bu sanat o'z ichiga ijrochilik mezonlari va uslublari, cholg'u musiqa asarlarini ijod etishi va ularning o'ziga munosabptini qamrab oladi. Bu esa ijrochi-sozandaning ijodi va mahorati bilan bog'liqdir. Cholg'uning umumiy ko'rinishi, parda tuzilishi(torli cholg'ularda) va tembrakustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasbkor qurollarini o'zlariga moslashtirish yulidagi izlanish va intilishlarining samarasidir. O'rta asrlarda pardalad tizimi, kuy-ohang tuzilishining tarkibiy birliklari (ilmi advor) va yangrash, ritm-usul tizimi (ilmi iqto) shakllanishi va amaliyotda qo'llanishi musiqa cholg'usi orqali o'z ifodasini ilmiy-amaliy ishlarda topgan. Binobarin, qaysi musiqa cholg'usi bo'lmasin, mohiyatan musiqa amaliyotini takomillashtirishga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga qaratilgandir. Qadimgi davrlardan malum bo'lgan cholg'ularning har birida inson qalbining nozik tuyg'ulariga hamohang sadolarni izlab topish va ularni mukammal shakllarga keltirishning uzoq tarmxi aks ettirilgan. Barhayot ananalarga ko'ra musiqa cholg'usi sozanda va ayniqsa, xonandalarning suyanchi va ishonchli hamrohi hisoblangan. Darhaqiqat, musiqa cholg'usi ijrochi uchun chinakam ilhom manbai, erkin ijodiy intilish va mahorat namoyish etishda uning yuldashidir. Musiqa cholg'ularining shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi, ularning parda tuzilishi, bezagi, tovush chiqarishi va yangrash, uslublari ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shu bois har bir cholg'uning repertuari ham mukammallashib va murakkablashib boradi. Musiqa madaniyatining o'rta asrlarda, ayniqsa, uning uyg'onish davri (IX-XVI asrlar) da, misli ko'rilmagan darajada yuksalishi musiqa cholg'ularining repertuari va ijro uslublari yanada boy va rang-barang bo'lishidan guvohlik beradi.

O'zbek milliy sozandalik sanatida shakllangan yakka, ikki yoki undan ortiq cholgular ishtirokidagi ijro uslublari, ularning turli milliy va umummilliy ko'rinishlari takomillashib, yangi ijrochilik uslubiga ega bo'lgan turli oqimlarning vujudga kelishi kuzatildi. XX asrda ananaviy (maqom cholg'u ansambli, jo'rnavoz xonandalik cholg'u ansambli, bayramona-marosim cholg'u (yoki karnay-surnay) ansambli va zamonaviy(dutorchilar, doyrachilar, g'ijjakchilar, rubobchilar, changchilar, ulchilar,xalfachilar kabi) cholg'u ansamblari shakllangan bo'lib, festivallar, bayramlar, ko'rik-tanlovlar mazmunini to'ldirishbilan birgalikda, ananaviy cholg'u musiqasi janrlari qonun-qoidalari asosida yaratilgan asarlar hisobiga o'z repertuarlarini boyitib bormoqdalar.

Hozirgi davrda milliy musiqaga bo'lgan etibor, xususan, cholg'u musiqaja janrlarining mahalliy ko'rinishlari, kuylarning shakl va ohang jihatlari, ijro uslublarning mahalliy va badiiy mezonlari va jonli ko'rinishlari ijroning yanada jozibali bo'lishiga imkoniyat yaratmoqda. Mumtoz cholg'u musiqasi yakkasoz va ansambl ijrosiga mo'ljallangan asarlardan iborat bo'lib,har bir soz va malum ansamblning ijro imkoniyatlari, kuy rivoji va shakli bilan ajralib turadi. Ularning repertuarlari ham o'z vazifalarga bevosita bog'liq bo'lgan janrlardan tashkil topgan. Shaklan murakkab va juda rivojlangan asarlarida mumtoz cholg'u musiqasining barcha qatlamlari taraqqiyotini yorqin namoyish qiladi. Bularni talaba yoshlarga o'rgatish ham ustoz uchun katta mahoratni talab etadi.

Bo'lajak musiqa mutaxasisi o'zbek mumtoz cholg'u musiqasi orqali to'la shakllangan bo'lmog'i lozim tarbiya avvalo insonga ona allasi orqali shakllanadi cholg'u kuylari qanchalik murakkab yoki mukammal bo'lmasin undagi tarbiyaviy ohangning hech qachon o'zgarmasligini har birimiz tushunib yetishimiz lozim. Olimlarning ko'p yillik izlanishlaridan shuni bilish mumkinki, bo'lajak musiqa mutaxasisi har tamonlama yetuk mutaxasis bo'lib yetishishida birgina cholg'u sozini mukammal o'rganishning o'zi yetarli emasligiga ishonch hosil qildik.Shuning uchun biz tajriba sinfi talabalariga har bir cholg'u sozining o'ziga chos chususiyatlari va unda chalinadigan kuylarni qiyomiga yetkazish imloniyatlari haqida malumot berish maqsadida maxsus siminarlar olib bordik. Bu

siminarda har bir cholg'u sozi buyicha mutaxassis bo'lgan o'qtuvchilar o'z ish tajribalaridan talabalarga so'zlab berishsa kutilgan natijalarga erishiladi, Cholg'u so'zining tuzilishi, unda tavushlarni ravon va toza hosil qilish, texnik qiyinchiliklarni bartaraf qilish va xususan o'zbek xalq mumtoz kuylarini ijro etishga etibor berilishi lozim bo'lgan muhim jihatlari haqida so'zlab berish lozim. Qadimdan Do'mbira juda sodda va imloniyati kam cholg'u hisoblanib kelingan, ammo ayrim do'mbirachilar tomonidan talqin etilgan "Baxshi va do'mbira kuylari", masalan, "Qadimgi nag'ma", "Qung'irotda nag'ma" va boshqalar, o'ziga xos uslubda, kuylari rivojlangan holda cholg'uning murakkab soz sifatida qabul qilinishiga imkoniyat yaratdi. Nay, qushnay, bulamon va surnay cholg'ulari kengroq imkoniyatga ega bulib, talabalar musiqa amaliyotida ularga mos yirik cholg'u va maqom cholg'u kuylari ijro etishlari ham mumkindir.

Puflama-damli cholg'ularda ijro etilgan musiqa asarlarining kuy tuzilishlari, tovush bezaklari har bir sozning ijro imkoniyatlari xamda puflab chalish jarayonida tovushlarni aniq va baland chiqarilishiga bog'liqdir. Bunga biz bazi bir asarlar orqali misollar berib o'tamiz. "Yovvoyi Chorgoh" bu asar nay cholg'usiga mo'ljallangan bo'lib, uning kuyi rivojlangan "Chorgoh" sho'basining ohangi asosida yuzaga kelgan. Kuyning tuzilishi va baland pardalarda intilishi, kuy misralarini nafas birligida chalinishi asarni nozik, jarangdor va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. "Cho'li Iroq" kuyi o'ziga xos lirik-vazmin xarakterda ijro etilib, cholg'uga xos bo'lgan boy tembr xususiyatlari va rang-barang ijro-texnika vositalari bilan o'ziga jalb qiladi. Kuyning ohangdorligi, kuychanligi, tovush tebratish mayinligi sozandaning mahorati bilan ham bog'liqdir. "Shodiyona" musiqa asari surnay va nag'ora cholg'ulariga mos bo'lib, yirik xalq yig'inlari, tuyu-tamoshalarda ijro etilib kelingan. Ushbu asar turkumli cholg'u kuylari sifatida ajralib turadi, ular ohang xilma-xilligi va usullarining rang-barangligibilan o'ziga tortadi. Ko'tarinki tantanavor harakterlarda ijro etilgan kuylar jo'shqinlik va ulug'vorlik bag'ishlaydi.

Tanbur va dutor cholg'ulari sozandachilik va maqomchilik sanatlarida keng ishlatilgan mazkur cholg'ularning turli kurinishlari mintaqadan tashqarida va

ko'plab xalqlar madaniyatida ham qo'llanib kelingan. Ushbu cholg'ularda ijro etilgan kuy sadolari, tembr\akustik tuzilishi va ijro uslublari har bir musiqaga asarlarining betakror ohanglarida o'z aksini topadi. Tambur va dutor asosan mohir sozandalar tomonidan chalingani uchun repertuari diyarli rivojlangan va maqom cholg'u yullaridan hamda shularga yaqin cholg'u kuylaridan iborat. Cholg'ular ijrosidagi nola va qochirimlar kuylarning g'oyat tasirchan bo'lishiga erishiladi ("Tanovar", "Rok", "Qo'shtor", "Azim daryo", "Bilak uzuk", "Yovvoyiy chorgoh", "Sarparda", "Munojot", "Dutor navosi", "Shaxt", "Qurt", "Turgay" va boshqalar. U bu cholg'ularda ijro etilgan musiqa asarlari o'zining ohangdor lirik harakterlari va kuylarga xos bo'lgan tasirchan tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq holda zavq-shavq baxshida etadi. Bunga yorqin misol sifatida "Tanovar" kuyining dutor va tanbur cholg'ulari talqin etilganini keltirish mumkin (mohir sozanda Turg'un Alimov ijrosida) "Qo'shtor cholg'u kuyi turkumli asar sifatida zamonaviy dutor san'atida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kuy Marg'ilonlik sozanda Qo'zixon Madraimov ijodiga mansub bo'lib, asar o'zining ijro texnik uslubi, zarblarning kuylar bilan mutonosibliigi va jarangdorligi, turli-tuman harakatlar (pessikato va chertim yullari talqini) va boy tasviriy vositalarga ega bo'lgani bilan ajralib turadi. Qashqar va afg'on ruboblari o'zlarining ovoz chiqarish uslublari, harakterli tembiri va ijro texnikalari bilan amaliyotda keng qo'llanmoqda. Qashqar rubobi jarangdor soz bo'lsa, afg'on rubobi mungli va mayin ovozga ega. Lekin ularning repertuarlari bir\biriga yaqin va aniq ananaviy cholg'u asrlaridan tashqari ("Jigar pora", "Rohat", "Eshvoy", "Eshvoy qurt", "Eshvoy turkman", "Mushkiloti dugoh" va boshqalar). Bastakorlar va kompozitorlar asarlari ham o'rin olgan. Chang va qonun cholg'ulari ham o'zlarining tasviriy imkoniyatlari jihatidan diyarli boy va tasirchan, ularning repertuarlari ham rang-barangdir ("Gulbahor va tanovar", "Qo'shchinor", "Munojot", "Jigar pora" va maqom cholg'u yullari. Mumtoz ijrochilik sanatida g'ijjak va sato cholg'ulari ham yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Qadimiy cholg'u sifatida xozirgi kunda keng tarqalgan g'ijjak va satog o'z imkoniyatlari va ularga mos repertuarlari bilan ajralib turadi. G'ijjak kamonli cholg'ular orasida yoqimli, nozik va ayrim hollarda jarangdor soz bo'lib, ijro

texnikasi va keng ishlatiladigan tovush bezaklari hamda kuylarning shaklan rivojlanganligi bilan o'ziga jalb qiladi. Yirik cholg'u ("Qo'shchinor", "Tanovar") va maqom cholg'u yullari ("Nasurulloiy", "Chorgoh", "Muhammasi bayot", "Xojiniyoz 1-2" va boshqalar) o'zbek bastakorlari cholg'u asarlari g'ijjak repertuaridan o'rin olgan.

Sato cholg'usi o'zining ijro etilishidagi imkoniyatlarning boyligi va ovozinig nozik, yoqimli tembri (cholg'uni "inson ovozig o'xshash nidosi" tariflanishi bejiz emas) jihatidan yaqqol ajralib turadi. Satoda asosan vazmin, og'ir kuylar ijro etilib, ular kamon orqali chuziq ovoqli, mayin va dartli hamda xilma\xil va tasirchan qilib chalinadi ("Fig'on", "Nola", "Tasnifi Tariji va Garduni navo" va boshqalar). Satoda chalish uslubi malum darajada murakkabroq, mukammalroq va ovoz chiqarishga mahoratlik talab etgani uchun asosan mohir sozandalar tomonidan ishlatiladi va shu tufayli uning repertuarida ko'proq ananaviy cholg'u musiqa namunalari o'rin olgandir.

Sozandalik sanatlada maqom cholg'u yullari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona vodiysi) dan tashqari ranggorang mumtoz cholg'u asarlari ham o'zlarining lokal variantlari bilan o'rin olgan. Ular yetuk sozandalar va bastakorlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan va keng tarqalgandir. Bu kuylar o'zlarining kuy-og'ang tizimi, ularning tuzilishi va rivoji jihatidan ancha murakkab, shaklan rivojlangan, hajman keng va davomli, usullari xilma-xil, baland avjli, ijro uslublar va texnik vositalari mukammal bo'lgan asarlar (cholg'u kuylari va turkumlari). Cholg'u kuylari o'ziga xos mazmun, xolat, kayfiyat, ohangdorlik, tasviriy va tasirchanlik mezonlari bilan xuzurbaxsh ruhiy manaviy ozuqa sifatida diqqatni jalb qiladi.

O'zbekiston musiqiy amaliyotida sozandalik sanati oddiy musiqiy jarayon bo'lib qolmasdan, milliy ijrochilik ananalari sifatida shakllandi va milliy madaniy yuksalishni taminlashda muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Binobarin musiqa sanatomizning bu turi shaklan va mazmunan boyigan o'zbek cholg'ulari va mumtoz cholg'u musiqasining barcha ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan badiiy(ijod va ijro) faoliyat natijasining ijobiy namunasidir.

Talabalarga dars jarayonida turli musiqa cholg'u sozlari orqali darsni tashkil etish ularning mumtoz musiqamizga nisbatan xurmat va tarbiya ruhini singdirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Cholg'u sozlaridagi munglilik, ohangdorlik talabalardagi tarbiyaning shakllanishida muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Rubob cholg'u sozining tovush diapazoni bolalar ovozigacha mos tushadi. Shuning uchun ham rubob cholg'u sozi hatto ko'plab xonadonlarda ham mavjud. Qashqar rubobining ikki xil turi bo'lib ulardan biri (texnik ruboblar) deb yuritiladi va ularning kosalari asosan fanerlardan ishlangan bo'lib dastasi ham qo'lni yuritish uchun qulay keladi. Birgina rubob emas o'zbek cholg'ularining barchasi mumtoz musiqasining ijro uslubi uchun qo'l keladi. Shunday ekan dars jarayonini albatta biror o'zbek cholg'u sozi va u haqidagi malumotlarni ko'proq to'plashga harakat qilib borish zarur va muhim ahamiyat kasb etadi bu esa bir tomondan darsning samarali o'tishida ham qo'l keladi. Insonda tarbiya oiladayoq shakllangan bo'ladi ammo musiqiy tarbiya esa mumtoz musiqalarimizni tinglash va idrok etish jarayonida yanada mustahkamlanadi. Musiqa orqali insonga jon ato etilgan deb bejiz aytilmagan, chunki u inson tanasiga tetiklik va ruhan kuch baxshida etadi. Mumtoz cholg'u musiqamiz ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib u ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda.

O'zbekiston musiqiy amaliyotida sozandalik san'ati oddiy musiqiy jarayon bo'lib qolmasdan, milliy ijrochilik ananalari sifatida shakllandi va milliy madaniy yuksalishni taminlashda muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Binobarin musiqa san'atimizning bu turi shaklan va mazmunan boyigan o'zbek cholg'ulari va mumtoz cholg'u musiqasining barcha ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan badiiy(ijod va ijro) faoliyat natijasining ijobiy namunasidir. Talabalarga dars jarayonida turli musiqa cholg'u sozlari orqali darsni tashkil etish ularning mumtoz musiqamizga nisbatan xurmat va tarbiya ruhini singdirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Cholg'u sozlaridagi munglilik, ohangdorlik talabalardagi tarbiyaning shakllanishida muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

II. BOB. Milliy qadriyatlarni singdirishda milliy bayram va marosimlarning o`rni.

II.1. Yuksak ma'naviyatli yoshlarning milliy o'zlikni anglashida ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati.

Ommaviy madaniyat-madaniyatning murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos buzg'unchilik shakli. Ommaviy madaniyatni G'arb madaniyati ish bilan bog'liq xodisa deb tushunish, shuningdek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari yirik sanoat ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yirik sanoat rivoji yollanma ishchilarga zaruratni tug'dirgan bo'lsa, feodal jamiyatning an'anaviy ijtimoiy tuzilmasining yemirilishi odatiy mehnatdan ayrilgan kishilar ommasini vujudga keltirib, ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qildi. Ommaviy madaniyatning shakllanishi ana shu jarayonni in'ikosi edi. Zero, u yangi ijtimoiy qatlamlarning (yollanma ishchilar va xizmatchilarning) o'zlarigagina hos bo'lgan madaniyat ko'rinishini yaratishga bo'lgan intilishning natijasi o'laroq shakllandi. Ommaviy madaniyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi ayni paytda ijtimoiy qadriyatlarni sodda, barcha uchun tushunarli bo'lgan tilga ko'chirish, ommaviy savodxonlikning o'sishi, nashr mahsulotlarining paydo bo'lishi hamdir. Uzoq vaqt davomida dunyo qarash va hulq me'yorlari ustozdan shogirdlarga yakka tartibda o'tib kelgan. Tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy tajriba va dasturlar uzatish mexanizmining universalla- shuvi ularni yanada kengroq doiraga olib chiqdi. Bunga ham ommaviy madaniyat shakllanishining muhim ko'rinishi sifatida qarash lozim. Bu jarayonning bugungi kundagi o'ziga xos natijasini bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonining universallashtirilgan-yagona andoza va dasturlar asosida tashkil etilganida ko'rishimiz mumkin. Bunday universallashtirish hozirda global miqyos kasb etmoqda. XX-asrda radio, kino, TV, video, kompyuterlar tizimining paydo bo'lishi natijasida Ommaviy madaniyat rivojining yangi bosqichiga qadam qo'yildi. Bu bosqich ko'pchilik uchun maqbul bo'lgan qarashlar va qadriyatlarni

shakllantirish imkoniyatlari keskin darajada o'sgani bilan xarakterlanadi. Ta'sir etishning nozik va qudratli quroiga aylangan reklama, moda kabi vositalar yordamida ommaviy iste'mol madaniyatini, intellektual faoliyat jismoniy mehnatni xar sohadan si- qib chiqarish kuchaygan bir paytda jismoniy sog'lom bo'lishga xizmat qiladi-gan xar xil sport turlarini faol targ'ib qilish yo'li bilan jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish urinish ham ana shu jarayonning natijasidir.

“Ommaviy madaniyat”-o'z auditoriyasiga ega bo'ladigan va tajovuskor madaniyatdir. V.M.Mejuev “Zamonaviy omma jamiyatning kosmopolitizmi” to'g'risida yozar ekan, ush-bu xodisani unga qo'shilish mumkin bo'lgan, lekin bu holda o'z milliy yuzini saqlab qolish- ning iloji qolmaydigan xodisa sifatida ta'riflaydi.

Kosmopolitizm globallashtirish jarayonining yuqori qatlamlarida dunyoga keng nazar tashlash va o'z ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish xamda o'z manfaatlarini jahon maydoni miqyosida qondirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, jamiyatning quyi qatlamlari ommaviy madaniyat surrogatlarini o'zlashtirishdan, o'z tanlovini erkin amalga imkoniyat-lari yo'qligidan paydo bo'ladi. Birinchi xolda, gap globallashtirish madaniy makonning “xaqiqiy mavjudligi” xaqida, ikkinchi holda esa soxta ko'rinishi xaqida boradi. Shu ma'no daki, ommaviy axborot vositalari makonni virtual jihatdan kengaytirishga, qadryatlar, me'yorlar, namunalar va boshqalarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Ikkinchi individda boshqa madaniyatlar bilan to'qnashishning xaqiqiy imkoniyati yo'q, u faqat shu xaqdagi ma'lumotga ega, xolos. F. Fukuyama, U. Bek, Lesh va boshqa olimlar bu borada postindustrial jamiyatlar erishgan texnik va iqtisodiy taraqqiyotning ulkan yutuqlari jamiyat ma'naviyatdagi shunga muvofiqlik taraqqiyotga olib kelmayotgani xaqidagi fikrni bildiradilar. Darhaqiqat, chegaralanmagan individualizm madaniyati jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Chunki uning asosiy qoidasi asrlar mobaynida shakllangan qoidalarni buzishdan iborat. Bu muammo- larning o'zagini-jamiyatni tartibga soluvchi turli ijtimoiy toifa va guruhlarini umummaq- sad yo'lida birlashtiruvchi va demak, uning yashovchanligini ta'minlovchi muhim “ijti- moiy

kapital” bo’lgan ijtimoiy qadryatlarning parchalanishi tashkil etadi. Bu parchalanishni F.Fukuyama “chegaralar yo’q” shioriga tayangan va “pop-madaniyat” orqali singdirila- yotgan “pop-psixologiya” ta’minlayotganini aytadi.

Ommaviy madaniyatning asosiy unsuri bo’lgan “pop-psixologiya” jamiyat oldidagi mas’uli yatni o’ldiradi. Zero, uning tayanchi-“daroad, foyda g’oyasi va butun xamma narsani, jumladan, xayot va sog’liqni xam sotib olish mumkinligiga bo’lgan ishonch”dir. Bu mafurani ommalashtirish vazifasini dunyoda hozirgi kunda avvalo ommaning “tarbiyachi”si vazifa- sini zimmasiga olgan televideniya bajarmoqda. Aloxida qayd etish lozimki, butun dunyo- ga singdirishga xarakat qilinayotgan g’arbona individualizmning inson, shaxsning individu- aliga, o’ziga xosligiga mutlaqo aloqasi yo’q. Aksincha, butun dunyoni o’ziga bo’ysundirish orzusidagi davlatlar targ’ib qilayotgan individualizm shaxsning o’ziga xosligini, alohidaligini o’ldirishga qaratilgan. Axborotlashgan jamiyatga tanqidiy qaragan Gerbert Shiller bunday kuchlar uchun axborot tarqatish faqatgina odamlar (axborot iste’molchilari) podaga aylangandagina foydali bo’ladi, deb hisoblaydi.

Bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash “ommaviy madaniyat” namoyondalarining qarashlari bo’lib, u jamiyat taraqqiyotiga, inson xayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Ko’pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish, uni oldini olish naqadar muhim ekanini anglab yetmoqda. Bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste’molchilik kayfiyati o’zagini tashkil etgan “Ommaviy madaniyat” asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, moxiyatini buzadigan va oxir-oqibat, insonni jon saqlashdan o’zga maqsadi bo’lmagan jonzot, xayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan xodisadir. Bugungi kunda OAV, TV madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbayi bo’lib xizmat qilmoqda. Bu, avvalo, odamlarning qayg’u hursanchiligini ifodalagan, ularni qiziqtirgan xar qanday muammoni tovarga, bir qolipga solingan ko’ngilxushlikki aylantirilishida namoyon bo’ladi. Globallashtirish jarayonlari va

uning yo'nalishlaridan biri bo'lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar "ijyimoiy mavjudod" hisoblangan insonda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, inson va jamiyat ma'naviy-axloqiy tayanchlaridan maxrum etiladi, jamiyat inqirozga uchraydi. Shu ma'noda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "....kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chettan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "Ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak.... Ayniqsa, xozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy taxdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat" ning zararli ta'siridan farzandlarimiz- ning ongu tafakkurini ximoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod axlining o'rni va ro'li tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimiz- ga yot va begona bo'lgan ana shunday "madaniyat" namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan xayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart". Davlatimiz rahbarining ushbu fikr-mulohazalarida "ommaviy madaniyat" ning mazmun-mohiyati, oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning izchil vosita va omillari aniq bayon etilgan.

O'zbekistonda aholida, hususan, yoshlarda "ommaviy madaniyat" ga qarshi turadigan milliy madaniyatni shakllantirish, xorijiy ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari qarshisida ularning tahliliy qobiliyatini va axborot iste'mol madaniyati, ayniqsa, media madaniyatini o'stirishga katta e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, yoshlarimizda yorqin bo'yoqlarda milliy qadriyatlarimiz, an'analарimiz ularning idealiga aylantirish yo'lidan borishimiz kerak.

Mustaqil yashash har bir xalq yoki millat uchun eng qadrli ulug' ne'matdir. Uning zaminida millionlar taqdiri, yurt istiqboli yotadi. Faqat mustaqillik sharoitidagina har bir millat tom ma'noda o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustamlakachilik zulmi ostida bo'lgan xalq yoki millat o'zini-o'zi anglash imkoniga ega bo'lmaydi. Bunga bosqinchilik va zo'ravonlik siyosati yo'l bermaydi. Chunki siyosat, mustamlakachi davlatning o'tkir quroli sifatida millatni o'zligidan mahrum qilishsa, uning qadriyatlari, urf-odatlar, rasm-rusumlari kamsitishga xizmat qiladi. Bunday siyosat yordamida mustamlakachilar o'nlab millatlarning tili, madaniyati, san'atini kamsitib keldilar va bularga bepisand munosabatda bo'ldilar. Xalqlarni milliy o'zlikni anglashdan mahrum qilish orqali ular o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishga harakat qilib keldilar. Buni mamlakatimiz xalqlari boshidan kechirgan o'tmishdagi ayanchli hayoti amalda tasdiqlaydi.

Milliy o'zlikni anglash orzu istak bilangina amalga oshmaydi. Buning uchun mustaqillikka erishishning o'zi kifoya qilmaydi. Milliy o'zlikni anglash uchun ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklash, uning imkoniyatlarini va afzalliklaridan samarali foydalanish, ma'naviy ma'rifiy sohadagi muammolarni hal eta borish ham talab qilinadi.

Tarix har bir xalqning hayoti va turmushi o'tmishda qanday kechganligi, u jarayon sivilizatsiyasida qanday o'rin egallaganligi haqida ma'lumot beradi. SHuning uchun ham o'zligini anglamoqchi bo'lgan xalq va millat uchun o'z tarixidan muhimroq vazifa yo'q.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy o'zlikning anglashning dolzarb muammolaridan yana biri – bu milliy qadriyatlarni: xalqimizning asrlar davomida shakllangan va xayotining mazmuniga aylanib kelgan urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'alarini qayta tiklashdan iboratdir. Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Navro'z, Ro'za va Qurbon hayitlarining qaytadan tiklanishi o'tmish ma'naviy merosini o'rganish borasidagi ishlarning boshlab yuborilganligi, o'zbekona to'ylar yoki ma'rakalarning o'tkazila

boshlaganligi, xalqimizning dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlar milliy o'zlikni anglashda ahamiyatga ega bo'ldi.

Milliy o'zlikni anglash har bir kishida milliy iftixor hissini kuchaytiradi. O'z vatani bilan faxrlanmaydigan, uning muvoffaqiyatlaridan ruhlanmaydigan kishi milliy o'zlikni anglashdan begonadir. Binobarin, milliy o'zlikni anglash milliy iftixor hissi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

SHunday qilib, milliy o'zlikni anglash mavhum tushuncha emas. U inson faoliyatining muhim jihatlaridan bo'lib, uning ma'naviy kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi.

SHarqona milliy tarbiyaning asosi bo'lgan Qur'on Karim, Hadisi sharif, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari, xalq pedagogikasi tajribalari, buyuk mutafakkirlar va pedagoglarimizning ta'lim-tarbiyaga oid merosidan foydalaninsh barkamool avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy hayotni bayramlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular turmushning alohida shakli hamda bayramning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. "Marosim", "odat", "an'ana" kabi so'zlar bayram tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularga alohida izoh borish lozimdir.

An'ana - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida, o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalaridir.

"Odat" ("urf-odat") –kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, hatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hulq-atvor qoidalari, ko'nikma. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odat hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hadislarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning

ma'lum sohalarida ,ya'ni kishilar turmushi ,mehnati xulq-atvori , muloqoti va oilaviy munosabatlari ko'proq mavjud bo'ladi.

“Marosim” – bu ko'pincha an'ana va urf odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatda o'tadigan,o'zining umum qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan , ism qo'yish marosimi, va hokazolar.

Odatda kundalik hayotning turli vaqtda uchratish mumkin bo'lsa , marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Uning asosiy burilish daqiqalarini (masalan, tug'ilish, uylanish kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimning avloddan - avlodga o'tiladigan, ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga, bo'layotgan voqealar guvoh sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo'lishgan, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishgan. Har bir marosimning o'ziga xos qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi oxiri)bo'ladi. Ko'pincha an'ananing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'ladi. Shu sababli inson hayotida yo'q bo'lib ketayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan katta “ nuqtalar” ni nishonlash jatumanida ham an'ana, ham odat, ham marosim sodir bo'lishi mumkin.

Bu tushunchalarni chuqurroq anglash uchun quyidagi misolga murojaat etamiz. Yoshlar voyaga etganda - yigitlar uylanishi, qizlar turmushga chiqishlari kerak. Buni avloddan - avlodga o'tib keladigan an'ana desa bo'ladi. Bir- birini sevgan yigit - qizning oila qurishi uchun nikoh to'yi o'tkaziladi, albatta. Bu esa o'z navbatida insoniyat hayotiga singgan, muayyan qoidaga , ma'lum tartibga ega bo'lgan urf - odat hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, “an'ana ”, “ odat ” , “marosim ” tushunchalarining izohi bir- biri bilan bir qatorda an'analarning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab chiqarishga borib, ish boshlashi bu odat tusiga

kirib qolgan. Bu muhim voqeaga bag'ishlaganib, har yili an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi - yoshlarni tantanali ravishda ishchilar safiga qabul qilish o'z o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi holatlarda "an'ana", "odat" va marosim" tushunchalari alohida ishlatilsa, abstrakt ma'no anglatishi mumkin. Bunday vaqtda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shilib (biron ish jatumani, hodisa, tadbirlarga nisbatan) ishlatiladi. Chunonchi, an'anaviy bayram, an'anaviy tadbir, an'anaviy festival, an'anaviy kecha yoki insoniy odat, mukofatlash marosimi, to'y marosimi, pensiyaga kuzatish marosimi, va hokazolar shular jumlasiga kiradi. "An'ana" va "odat" tushunchalariga nisbatan "marosim" ko'proq bayram bilan bog'liq. Ba'zi marosimlar bayramlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi, ba'zi marosimlar bayram kunidan tashqarida ham tashkil qilinsa, u bayram holatini vujudga keltirishi mumkin, masalan "diplom topshirish" marosimlarini bayram holatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tantanali ravishda pasport topshirish marosimi - yoshlarni balog'atga yetgan fuqaro bo'lganligi haqidagi hujjatni olishi har bir o'spirin uchun katta bayram. Demak, birinchidan marosim bayramning tarkibiy (yoki asosiy) qismi sifatiga ham namoyon bo'ladi. ikkinchidan, ko'pgina marosimlar alohida o'tkazilganda ham bayram holatini vujudga keltiradi.

"An'ana", "marosim" kabi bayram bilan bog'liq atamalar qotib qolgan "standart" tushunchalar emas. ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush ehtiyojlari ta'sir etishi mumkin.

Ijtimoiy hayotning shunday muhim bir qonunyati borki, u taraqqiyotning muntazam shaklidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. binobarin, biron yangi narsa, hodisa vujudga keladi, ikkinchisi rivojlanadi, uchinchisi hayot talabiga javob bermay o'z o'rnini boshqa shakllarga bo'shatib beradi, va hokazo. Jumladan, hayotiy an'ana va bayramlar ham xuddi shunday qonuniyatlarga rioya qiladi.

Ijtimoiy hayot taraqqiy etishi bilan uning talabiga javob bermaydigan an'analar va bayramlar asta-sekin unutila boshlandi. Mohiyatan

xalqchil, ijtimoiy foyda keltirish mumkin bo'lgan an'analar taraqqiy etadi. Masalan "Navro'z", "lola sayli" va hokazo. Bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun yashab keladi. Ijtimoiy hayotning tubdan o'zgarishi xalq turmushining rivojlanishi, zamonga mos an'analar yaratilishini talab qiladi. Chunonchi, o'zbek xalqida ilgari mavjud bo'lmagan ko'plab mehnat va shaxsiy-oilaviy an'ana, marosim va bayramlar vujudga kelmoqda.

Keyingi paytlardagi ilmiy va maxsus adabiyotlarda "an'anaviy bayramlar", "yangi an'analar" kabi tushunchalar ko'proq ishlatila boshlandi.

Ba'zi olimlar va amaliyotchilar "yangi an'analar" deganda hayotga singib ketgan, nasldan - naslga meros bo'lib o'tadigan, ma'lum vaqt ichida muntazam tashkil etiladigan madaniy - ommaviy shakllar: "gul bayrami",

"lola sayli", "qovun sayli", "xirmon to'yi", (hozirgi "paxta bayrami") kabilarni misol keltiradilar, bunday tushuncha albatta noto'g'ri. Binobarin, ular sof "yangi an'ana" emas, balki yangicha tashkil qilingan qadimiy an'analar, qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan xalq bayramlaridir. Ularni an'anaviy bayramlar deyish to'g'riroq bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, "yangi" degan sifatlovchi vaqtga nisbatan nisbiy bo'lgani uchun, balki o'n yilliklar o'tishi bilan yuqoridagi shakllar "yangi an'analar" emas, balki an'anaviy marosimga aylanib ham qolishini unutmazlik lozim.

Ko'rinib turibdiki, "an'ana", "odat" va "marosim" kabi atamalar juda ko'p qirrali ijobiy tushunchalardir. Biroq biz ta'kidlagan bu muammolar chuqur o'rganilishi lozim va ular o'zining maxsus tadqiqotlarini kutmoqda. Bizning asosiy vazifamiz- bayramlar yoki bayram darajasiga ko'tarilgan tadbirlar va bayramlarning tarkibiy qismiga aylangan an'analar, odatlar, marosimlarni o'rganishga qaratilgan.

Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. Odatda, "bayram" deganda hayotdagi muhim voqea, sanani (ko'tarinki ruhda va xursandchilik bilan) nishonlash tushuniladi. Bu umuman olganda to'g'ri, biroq bayramlar

tushunchasi ancha keng va chuqur ma'noga ega. Uning ildizlarini inson tabiatining zaminidan topish mumkin.

Borliqda keskin ikki qarama – qarshi: yorug'lik va qorong'ulik, issiqlik va sovuqlik, yaxshilik va yomonlik, kabi tomonlar bo'lganidek insoniyat hayoti ham kundalik tashvishlar va quvonchlardan tashkil topadi, desa bo'ladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, Beruniy bayramlarni koinot, borliq hodisalari bilan bog'lab, hayotdagi “eng muhim kunlar” desa, Maxmud Qoshg'ariy bayramlarni “shodlik va xursandchilik ” deb ta'riflaydi.

Darhaqiqat, bayram shunday ruhiy - emostional kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda hamma (boshqa kunlarga qaraganda) xursand , shod va baxtiyor bo'ladi. “ Bayram, - deb yozadi zamondoshimiz A. I. Mazaev ,- bu ma'lum vaqtdagi ideal hayotdir”. Insoniyat bayramlari, jumladan o'zbek xalqi bayramlarining eng yaxshi odatlariga ko'ra , ularda quydagi afzalliklar mavjud:

1) bayram hayotning davomi, muhim qismi, eng yirik hodisa , voqea, sanalarni qayd etadi, ularni nishonlash uchun kerakli imkoniyatlar yaratadi. Bayram ulug'vor ishlarning tantanali boshlanishi va muvaffaqiyatli tugallanishi kabi daqiqalarida ham vujudga keladi. U kishilarning kurashi, mehnati hamda boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini ifodalaydigan hodisadir. Bayram - orzu, mehnat, kurashning g'alabasi, u insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalaridan faxrlanishga, ertangi kunga yaxshi rejalar tuzib, kelajakga katta umid bog'lashga yordam beradi. Shu boisdan ham, bayram arafasida kishilar bir - birini tabriklashadi, yutuqlar bilan qutlashadi, kelajak hayotlari uchun yaxshi istaklar bildirishadi, ishlariga muvaffaqiyatlar, omad, baxt tilashadi;

2) bayramlar hayotning bir qismi hisoblansada, biroq u vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan ritm baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar (ma'lum vaqtda takrorlanib turgani uchun) o'ziga xos vaqt o'lchovi hisoblangan. Hozir ham (hamma biladigan kalendar bo'lishiga qaramay) bayram kunida muayyan vaqt o'tganligini (

masalan, yangi yil nishonlayotganda yana bir yil o'tganligini) chuqurroq xis qilish mumkin. Bayram kunlar odamlar ichida: "oradan shuncha... vaqt o'tibdi- ya" degan so'zlarni tez tez eshitish mumkin. Shunday ekan, bayramlar vaqt qadriga etish, uni e'zozlash uchun sharoit yaratadi;

3) bayramlar hayotning tomonlarini aks ettiradigan "ko'zgu" dir. Chunonchi kishilar eng yaxshi odatlarni namoyish qiladi, go'zal libos va kiyimlarini kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, o'zlaridagi qobiliyatlarini, ijodiy havaskorligini namoyish etadilar, hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi. Bayram kuni yomonlar- yaxshi, xasislar- saxiy, xunuklar - go'zal, go'zallar esa yanada go'zal bo'lib ketadilar. Bayram kuni odamlarning libosi, go'zalligiga qarab to'ymaysan, kishi.

4) bayramlar ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Chunki bayram kuni mehnat qilish ayb hisoblangan, odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlardan ozod bo'lgan. Bayram kunlari barcha qiyinchiliklar, dardu alamlar unutilgan, kishilar shodu - xursand bo'lishga shaylanganlar. Bu kuni odobsizlik, o'g'rilik, zo'ravonlik, fisqu-fasod kabi yaramasliklar unutilgan.

5) bayram kuni tenglik hukm surgan, boshqa kunlarga nisbatan barcha teng - baravar bo'lgan. Hamma bir qozondan ovqat egan, bir xil tomosha ko'rgan, birga saylgohlarga chiqib, sayr qilishgan.

6) bayram tinchlik kuni hisoblangan, urishlar to'xtatilgan. Xalq odatlariga ko'ra bu kun xafagarchiliklar unutilgan, o'zaro arazlashganlar yarashgan. Tanishlar do'stlashgan, bayramlarda shunday holat vujudga kelganki, unda omma g'oyaviy-ma'naviy birlashgan, hamjihatlik printsiplari barqaror bo'lgan.

7) bayramlarda vujudga kelgan g'oyaviy-ruhiy ko'tarinkilik kishilarni ertangi kunga yaxshi umidlar bag'ishlash, porloq kelajakka ishonch bilan qarash, hayotni yanada go'zal qilishga undaydi. Xullas, bayramlar kishilarda hayotbaxsh ruh uyg'otish uchun xizmat qilgan.

Keng ommani o'z ishtirokchisiga aylantira oladigan bayramlarning afzalliklari haqida ko'p gapirsa arziydi. Ayniqsa, uning ijtmoiy, madaniy,

tarbiyaviy imkoniyatlari ham jiddiy ahamiyatga egadir. Chunonchi , bayramlar ijtimoiy- madaniy hayot ko'zgusi sifatida xalq vakillarining ijtimoiy, iqtisodiy, mehnat, madaniy, ijodiy yutuqlarini ham keng namoish qiladi.

“Bayramning ijtimoiy- siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadi, - deb yozadi professor E. V. Sokolov, - u muhim an'analarni qo'llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi”. Bayramlar darhaqiqat, xayotning eng diqqatga sazovor elementlari, moddiy va madaniy sohalardagi eng yaxshi tomonlarining ko'rsatkichi hisoblanadi. Chunki bayram kuniga bag'ishlab hamma muassasalar, korxonalar va barcha jamoalar o'zlarining eng yaxshi ish natijalari va erishilgan muvaffaqiyatlari hamda yuksak madaniyatlarini namoyish qiladilar. “Aynan bayram, - deydi yirik madaniyatshunos olim ” A.I. Arnoldov – dunyo madaniyatiga yig'ilgan eng qimmatli boyliklarni o'zida sintezlashtiradi ”. Shuning uchun bayram insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Bayram jamiyat hayotining tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir vaqtda, u ko'pincha maxsus belgilangan kunda - ishg'dan xoli vaqtda nishonlanadi. bayram kuni barcha kundalik tashvitshlardan, xar kungi mehnatdan ozod bo'lishi uchun imkoniyat yaratildi. bbinobirin, ittifoqimizda yirik bayramlarni nishonlash uchun maxsus dam olish kunlari belgilab qo'yilgan. (ular yil davomida 8 kunni tashkil etadi.) shuningdek kalendaridagi ko'pgina kasbkorlik kunlari va boshqa bayramlar aynan dam olish kunlari- yakshanba kunlari nishonlanadi barcha dam olish shakllari orasida bayramlarni eng yuqori darajaga ko'targan edi. Bayramda dam olish kunlarining eng samarali elementlari mujassamlashadi. ushbu fitkrga qo'shilgan xolda bayram dam olitsh kunlarining eng oliy va faol shakllaridir, degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi mehnat bayramlari o'tkaziladigan kun dam olish kuni bo'lmasligi mumkin. Bayram tarbiya sistemasidagi o'ziga xos muhim va eng yirik shakldir. Xalq san'ati va madaniyati

shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan tadbir bayram hisoblanadi. Bayramshunos olim D. M. Genki: " Ommaviy bayramlar eng kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositalarni birlashtirib, umumiy tarbiya sistemasida o'ziga xos kulminatsion zvenoni namoyon qiladi ", deb bejiz ta'kidlamagan edi. Bayramlar xalqning eng yaxshi an'analari , odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob – axloqli bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Bayramlarni chuqur va har tomonlama tushunish uchun uning xususiyatlariga ham to'xtalmoq lozim. Chunki, bayramlarning xususiyatlari, uning boshqa hayotini hodisalardan ajratib turadigan faqat uning yolg'iz o'zigagina tegishli belgilarni tashkil qiladi. Ommaviy bayramlarning eng asosiy, birinchi xususiyati - bayram holati (bayram kayfiyati) bilan bog'liqdir. Tashkilotchilar ularning hohlagan vaqtda bayramni belgilashi yoki uni tashkil qilishi mumkin emas. bayramni hayotining o'zi belgilab, xalqqa unga nisbatan ehtiyoj tug'ilganda va bayram kayfiyati vujudga kelgandagina tashkil qilsa bo'ladi. Bayramlarning ikkinchi xususiyati - bu ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir. Bayram faqat xalq uchun uyushtiriladi va uning ishtirokida o'tadi. Barcha san'at maskanlarida - teatr , konsert zali, kino va televizorda ijrochilar va aholi o'rtasida ko'zga ko'rinmas "devor" mavjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa, bayramlar xalqning faol ishtiroki bilin o'tadi. Bayramda xalq vakillari o'zlarining havaskorligi va tashabbuskorligini namoyish qiladi va nishonlayotgan voqeaga o'z fikri va munosabatini bildirishadi.

Ma'lumki, bayramlarda hammani bir xil darajada faollashtirib, qatnashtirib bo'lmaydi. Bayramning faol qatnashuvchilari - bayram dasturida ishtirok etadigan boshqaruvchilar, xalq iste'dodlari, badiiy havaskorlik jamoalarining a'zolari kabilardir. Bayram ishtirokchilarini faollashtirish uchun ular o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, viktorinallar, ko'rik - tanlovlar, sport musobaqalari uyushtiriladi, xullas, bayramda har bir kishi o'z ijodi va qobiliyatini namoyish qilishi mumkin.

Bayramning uchunchi xususiyati shundan iboratki, u sof holda uchramaydi. Albatta u bir yoki bir necha (kompleks) tadbirlarning sintezidan tashkil topadi. Agar uning asosida tadbirlar yotmasa, u uyushtirilgan holatidan iborat bo'lib qoladi. Haqiqiy bayram – bu bayram holatini tashkil etish, uni madaniy – badiiy jihatdan bezash natijasida vujudga keladi.

Bayramning tashkil qilinishi - uning mavzusi, mohiyati, ijtimoiy ahamyatini maxsus tadbir va marosimlar bilan yoritish demakdir. Odatda, har bir ommaviy (ayniqsa ochiq joylardagi) bayramlarning asosiy marosim tadbiri(bayramning tantanali ochilishi) uyushtiriladi. Undan so'ng, bir joyda bayram ko'rgazmalari, ko'rik- tanlovlari, ikkinchi joyda - dor o'yini, polvonlar chiqishlari, qo'g'irchoq teatr tomoshabinlari, to'rtinchi joyda badiiy havaskorlik jamoalari, fol'klor –etnografik ansamblari konsertlari, beshinchi joyda sport musobaqalari (kurash, poyga, chavandozlik) va shu kabi shakllar tashkil qilinadi.

Mustaqil O'zbekistonning kuch qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Qadriyat insonning ma'naviy e'htiyojini qondirishga xizmat qiladigan, shu bois insoniyat tomonidan qadrlanadigan ma'daniy, manaviy, mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy omillarning majmuidir.

Aslini olganda, eng oliy qadriyat insonning o'zidir. Biroq sho'rolar davrida inson qadrlanmadi. Totalitar tuzum davrida o'zbeklarning qadimiy qadriyatlari, urf - odatlari va xaqchil g'oyalarini aks ettirgan, necha minglab misralarni, jild jild kitoblarni tashkil etiladigan afsonalar rivoyatlar, ertaklar, dostonlarga bir yoqlama bir munosabatda bo'lindi. Ularga zamonasozlik, iymon e'tiqodga, mehnatsevarlik va yurtparvarlikka, odob –axloq va madaniyatga chorlovchi asosiy g'oyalridan foydalanish o'rniga ular o'tmishni ideallashtiradi, podshohlar, honu - beklarni ulug'laydi, shu tariqa odamlar ongini eskilik sarqitlari bilan zaharlab, ular e'tiborni sovet tuzumidan chetga tortadi, deb qoralandi.

Mustaqil xalqimizning madaniy- manaviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov so'zlagan nutqida “Bozor

iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz", deb ta'kidladi. Respublikamiz rahbarlari xalqimizning tarixiy, milliy va ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi uchun ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, Qur'oni Karimning va Ismoil Buxoriy hadislar to'plamining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi katta voqea bo'ldi. Bugungi kunga kelib Abu Iso Muxammad At Termiziyning "Shamoili Muxammadiya", Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziyning "Qissaiy Rabg'uziy", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" nomli kitoblarinni o'qish baxtiga sazovor bo'ldik. "Temur tuzuklari" ning chop etilishi milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yo'lida katta yutuq bo'ldi.

Bayramni tashkil qilish eng avvalo nishonlayotgan voqealarning mohiyati va umumiy mavzusidan kelib chiqib, bularga mos shakllarni (uni uyushtirish tadbirlarini) topish demakdir. Bayramlarni uyushtirishda deyarli barcha muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, jamoalar qatnashadi. bayram kayfiyatini yaratish va uni uyushtirishda ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, matbuot, san'at muassasalari), teatr, kinoteatr, filarmoniya, kontsert tashkilotlari, madaniy- ma'rifiy muassasalar (klub, istirohat bog'i) , sport tashkilotlari, jamoat tashkilotlari kabilar muhim rol' o'ynaydi. Ularning har biri o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib , bayramga bag'ishlangan eng yachshi va eng yuqori saviyadagi faoliyatni namoyon qiladilar. Davlat organlari bayramlarni, namoyish, miting, tantanali majlis va boshqa bayram tadbirlarini uyushtirishga umumiy rahbarlik qiladi. Bayramni uyushtirish masalalariga joylarda tuzilgan jamoatchilik kengashlari faol yordam beradi.

Bayram kayfiyatini yaratish va uni uyushtirish ishida ommaviy axborot vositalarining roli kattadir. Gazeta maqolalari, radio eshittirishlari va televediniye ko'rsatuvlari boshqa kunlarga qaraganda bayram daqiqalarini yuksak saviyada uyushtirish, bayram mazmunini ochish va tantanavorlik holatini yaratishga xizmat qiladi.

Bayram kuni san'at muassasalari (teatr, kinoteatr, kontsert tashkilotlari) o'zlarining eng yaxshi (mavzusiga mos) spektakllari, filmlari va bayram kontsertlarini namoyish qilishadi.

Joylarda bayramlarni tashkil qilish markazi rolini klub muassasalari hamda madaniyat va istirohat bog'larida o'ynaydi. Ularning muayyan joy sharoiti va mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqib, bayram uyushtirishda o'ziga xos hissi bor. Shuningdek, ularning har birida o'ziga xos bayram tadbirlari, ya'ni shakllari mavjud. Ularda o'tkazilgan bayramlar yaxlit bir shaklda yoki bir necha kompleks tadbirlar shaklidan tashkil topishi mumkin. Bayramning mohiyati va ahamiyati uning qaysi masshtabda o'tkazilishini belgilab beradi. Odatda yirik bayramlarning har doim asosiy (bosh) tadbiri bo'ladi. Xalqaro, umumittifoq bayramlarini butun mamlakatda nishonlash bilan uning bosh tantanasi (masalan xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali majlis va tematik konsert) poytaxtda (bayram arafasida) o'tkaziladi. Respublika miqyosidagi bayramlar barcha viloyat, tuman va xo'jaliklarda o'tkazilishi bilan poytaxtda (masalan, "Mustaqillik bayrami" ga bag'ishlangan anjuman va tomoshalar Mustaqilik maydonida) uyushtirilishi rasm bo'lib kelmoqda.

Quyida O'zbekistonda yil davomida o'tkaziladigan bayramlar qanday shakllardan tashkil topishi mumkunligiga murojaat qilamiz:

"Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!"—yangi yilni kutib olishga bag'ishlangan teatrlashtirilgan karnaval kechalar, kontsertlar.

"Hayot ko'rki" -8 mart-xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali kecha.

"Navro'z" bayrami- bahorni sharaflashga bag'ishlangan marosim, tadbirlar, ko'rik, musobaqa, tomoshalar.

"Inson xotirasi"— o'tgan avlodni xotirlovchchi, qadrllovchi, avlodlar uzviyligini mustahkamlovchi miting, marosim, ziyoratlar...

"Keling bir kulishaylik!"- norasmiy umumqabul qilingan "hazil kuni" – (1 aprel') ga bag'ishlangan quvnoq kecha.

“Kosmos kutmoqda” -12 aprel’ kosmonavtika kuniga bag’ishlangan adabiy – badiiy kompozitsiya.

“Lola sayli” - aprel oyining oxirgi dam olish kundari, mehnatkashlarning saylgohlarga chiqib madaniy dam olishi.

“Xotira va qadrlash kuni ” - 9 may g’alabaga bag’ishlangan tematik kechalar, teatrlashgan tomoshalar, uchrashuvlar.

“Bizning kelajagimiz”- 1 iyun’ - bolalarni himoya qilish kuniga bag’ishlangan marosim, “bo’sh kelma, o’smir!” konkursi, kontsert

“Biz sizdan shifo topdik ”- 15 iyun’ -shifokorlar kuniga bag’ishlangan tematik kecha.

“Oydin kecha” - maktabni bitiruvchilar uchun marosim, sayl.

“Gul bayrami” – xalq sayli, ko’rgazmalar, tomoshalar.

“Mustaqillik kuni” - 1 sentyabr -yangi o’quv yiliga bag’ishlangan marosim.

“2-sentabr Birinchi Prezidentimiz xotirasi va Bilimlar kuni” – ilm va bilimga bag’ishlangan tadbirlar.

“Ustozlarim, bor bo’ling!” - 1 oktabr o’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan badiiy-musiqiy kecha.

“Ijodkor yoshlik” - xalqaro yoshlar kuniga bag’ishlangan do’stlik kechasi.

“Baxtimiz qomusi ”-Konstitutsiyaga bag’ishlangan tadbirlar.

Ilova qilingan jadvaldan ma’lumki, bayramlarni tashkil qilishda foydalaniladigan tadbir yoki shakllar xilma xil va ularning doirasi cheklanmagan. Yuqorida biz ularning eng muhim va amaliyotda sinalgan shakllariga to’xtalib o’tdik. Ulardan shu narsa yaqqol ko’rinib turibdiki, har bir bayram va ularning turli shakllari ijtimoiy- madaniy hayotda o’z o’rni, bajaradigan vazifalari bor.Yana shuni ta’kidlab o’tish kerakki, barcha bayramlarga bir xildagi shakllarni qo’llab bo’lmaydi. Har bir bayramning xarakteri va mazmunidan kelib chiqib, uning mantiqi talab qilgan shakllarni qo’llash maqsadga muvofiq.

Barcha bayramlar (ular ijtimoiy hayotning qaysi sohasiga bag'ishlamasin) insoniyat madaniyatining muhim shakli sifatida namoyon bo'ladi. Biroq shunday bayramlar borki, ular bevosita madaniy hayot, jumladan, ilm- fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, xalq ijodi, turmush madaniyati, sport va jismoniy tarbiya madaniyati kabilar bilan bog'liqdir. Ular maxsus adabiyotlarda keng ma'noda "madaniyat bayramlari" deb yuritiladi.

Madaniyat bayramlarining bir qismi ma'rifiy voqeaga oiddir. Kitob ko'p chop etiladigan mamlakatimiz, jumladan, respublikamizda "kitob bayrami", "alifbe" bayrami kabi an'analar bilan birga "bilimlar kuni" ning joriy etilishi qator ma'rifat bayramlari shakllanishiga asos bo'ldi.

Madaniyatning eng muhim sohalaridan biri bo'lmish ilmu – fan yutuqlariga bag'ishlangan marosimlar, etuk fan va madaniyat arboblarning yubileylarini nishonlash muhim ijtimoiy an'anaga aylangan. O'tgan yillar ichida, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, al – Xorazmiy, Z. M. Boburning tavallud kunlariga bag'ishlangan yubileylar nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo miqiyosida nishonlandi.

Yosh avlod ijodiy riivojlanishida muhim o'rin egallayotgan bolalarning "san'at bayrami", mamlakatimizning barcha san'atkorlari ishtirokida o'tadigan "Oltin kuz" nomli festival, butun jahonga tobora mashhur bo'lib borayotgan har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" xalqaro festivali, haftaliklar, teatr kuni, musiqa bayramlari, do'stlik karnavallari kabilarini uyushtirish respublikamizda eng yaxshi an'anaga aylangan. "Yagonasan, muqaddas Vatan!" respublika doirasida o'tayotgan qo'shiqlar tanlovi respublikamiz viloyatlari va tumanlaridagi ko'rik tanlovlar xalq madaniyatining eng yirik yutuqlariga, xalq ijodi, havaskorlik san'atining rivojiga baq'ishlangan yirik bayramlarga aylanib ketmoqda.

Xullas, o'zbek madaniyatining gullab yashnashi, uning barcha asosiy sohalarida erishilayotgan yutuqlar natijasida ilmu – fan, adabiyot, san'at, xalq

ijodi, sport kabilarga oid an'analar va bayramlarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi tabiiydir.

Keyingi vaqtlarda yangi o'quv yilining boshlanishiga bag'ishlangan marosim va uning an'analari vujudga kelmoqda. Ilm dargohlariga ilk bor qadam qo'yuvchilarni musiqa sadolari ostida kutib olish, ularni talabalikka qabul qilish va bu jamoada ularga "bilim kalitini" topshirish, talabalik daftarchasini topshirish, "ilk mash'alani yoqish", yangi o'quv yilining bayrog'ini tantanali ko'tarish va "birinchi qo'ng'iroq" ni chalish kabi g'oyaviy - ramziy xarakter mazkur marosimning asosini tashkil qilmoqda.

"Bilimlar kuni" - yangi o'quv yilining yana bir ijobiy an'anasi - bu (ilk bor qo'ng'iroq chalingandan so'ng) birinchi darsni "mustaqillik darsi" sifatida uyushtirishdir. Bu darsning g'oyaviy - ijtimoiy ahamiyati juda katta bo'lib, unda talabalar tinchlik - yoshlarning ham birdan- bir orzusi ekanligini, bilim cho'qqilarini egallash, kasb o'rganish, ilm ummonida javohirlar terish uchun ham, avvalo tinchlik kerak, degan fikrlarni o'zlashtiradilar. Darhaqiqat, an'anaviy bayramga aylanib qolgan "bilimlar kuni" o'quv yurtlarida "mustaqillik darsi" bilan ochilishida chuqur ma'no bor. Birinchi sentyabr - "Mustaqillik bayrami", ikkinchi sentyabr - "Bilimlar kuni" bilan bir qatorda 2017-2018 o'quv yilidan Birinchi Prezidentimiz I. Karimov "Xotira dars"lari bo'lib o'tadi. O'quv yilining birinchi kuni, mashg'ulotlarga aniq, amaliy marom baxsh etadigan kun. Uning qanday yaxshi o'tishi - juda muhim va ma'suliyatli ish. Bilim olish yaxshi boshlanishi va o'tishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

"Kitob bayrami". Kitob insoniyatning barcha bilim va tajribalarini o'zida mujassamlashtiradigan muhim madaniy vosita, bir avlodning ikkinchi avlodga qoldiradigan ma'naviy boyligi, kishilarning o'tmishi va hozirgi yutuqlari haqida ma'lumot beradigan bebaho manba. Kitob insonning ma'naviy shakllanishi, kishilarning bilim olishi va dunyoqarashining kengayishi, kasb sirlarini egallashi hamda haqiqiy mutaxassis bo'lishidagi haqiqiy qurol. Shu

bilan birga, kitob hayotni go'zallashtirish, mehnatni yengillashtirish va dam olishning yanada mazmunli bo'lishidagi asosiy manbadir.

Xalqimiz ruhida kitobga e'tiqod, hurmat qadim xalqning benihoya kuchli bo'lgan: “tafakkur mevasi - kitob”, “kiyim – ustigni bezaydi, kitob-aqlingni”, “kitob - ko'zgu, unda olamni ko'rasan”, “oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim kitobdan”, “ kitobsiz uy - quyoshsiz kun”, “kitob aql - chirog'i”, “kitob bilim beradi, bilim baxt keltiradi” kabi maqollarning donishmand xalq hayotida yaratilishi bejiz emas. Shunday ekan, ma'naviy barkamol , madaniyatli va bilimli bo'lish ishtiyoqi bor inson kitobga intilishi, undan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Kishilarning kitobga bo'lgan ehtiyoji va yuksak hurmati natijasida kitob bayrami vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017 yilning 12 yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha” qabul qilingan farmoyishning asosiy maqsadi ham yoshlar va xalqimizni kitobxonlikka jalb qilishdan iboratdir.

“Kitob bayrami ” insoniyat aqli va dahosi yaratgan ma'naviy boylik va bebaho bilimlarga nisbatan hurmatni izhor qilish tadbiridir. Bu bayram kitobga muxabbati bor barcha kishilar, shuningdek yozuvchilar, kitob nashr etuvchilar, sotuvchilar, kutubxonachilar va kitob sevarlarning o'zaro hamkorligi va yaqlitligi tantanasidir. “Kitob bayrami ” asosan kitobni vujudga keltiradigan va ularni xalq o'rtasida tarqatadigan, targ'ibot qiladigan, xullas, kitob bilan bog'liq bo'lgan yozuvchilar uyushmasi, kitobsevarlar jamiyati, nashriyotlar, kitob savdosi tarmoqlari, kutubxonalar kabi tashkilot va muassasalar hamkorligida (ba'zan alohida) tashkil qilinadi. Kitob bayramini uyushtirishda respublika, viloyat, shaxar, tuman kitobsevarlar jamiyati asosiy rolni o'ynaydi. Kitob bayramlari ularning faoliyatida samarali yordam beruvchi eng yirik va muhim tadbirlardan biridir.

“Kitob bayramlari” - kitob va undagi bilimlarni targ'ibot qiluvchi eng oliy shakl - ommaviy kompleks tadbirlardir. “Kitob bayramlar” ini ko'pincha

mamlakatimiz, respublikamiz yubileyleri, muhim ijtimoiy- madaniy sanalarga, atoqli adabiyot va madaniyat namoyandalari tavalludlariga bag'ishlab o'tkazish yaxshi an'anaga aylanmoqda.

Boshqa yirik bayramlar kabi ushbu bayramni uyushtirish uchun oldindan tashkiliy qo'mita tuziladi. Bayram uchun taklifnomalar, afishalar, bukletlar, devoriy gazetalar, yozuvchi va shoirlarning portretlari va boshqa targ'ibot tashviqot ishlariga oid materiallar tayyorlanadi. Bayramning badiiy qismini tayyorlashga mahalliy madaniyat xodimlari hamda badiiy havaskorlik jamoalari taklif qilinadi. O'zbekiston sharoitida katta maydonlar, ayniqsa, madaniyat va istirohat bog'larida kitob bayramlarini uyushtirish qulaydir. Respublikamizda uyushtiriladigan "Kitob bayramlari"ning asosiy shakillari kitob ko'rgazmalari, kitob bozori savdosi, kitob lotoreyalari, yozuvchilar va shoirlar bilan uchrashuv, adabiy viktorina, adabiy qahramonlar obrazlari qatnashadigan tomoshalar va boshqa kitob qahramonlar obrazlari qatnashadigan tomoshalar va boshqa kitob targ'ibotiga oid tadbirlardan tashkil topmoqda.

Ko'pincha "kitob bayramlari"da "ma'lumotlar stoli" uyushtiriladi. U yerda malakali kutubxonachilar - bibliograflar kitobxonlarni qiziqtirgan mavzu bo'yicha qanday kitoblar chop etilganligi haqida maslahatlar berishadi.

Bayramning asosiy tadbirlaridan biri bu yozuvchi va shoirlar bilan kitobsevarlarning uchrashuvidir. Yozuvchi – shoirlar kitobxonlarga chet va o'zbek adabiyoti, uning yutuq va vazifalari, mahalliy adiblar ijodi haqida so'zlashadi, o'zlarining yangi yozgan asarlaridan namunalar o'qishadi. Uchrashuv ko'pgina qiziqarli savol - javobga aylanib ketadi. Bulardan tashqari kitob bayramida maxsus uyushtirilgan kitob bozori qiziqarli adabiyotlarni kitobxonlar e'tiboriga havola etadi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan ko'pgina kitob bayramlarining asosiy qatnashchilari yosh kitobxonlar - maktab o'quvchilari bo'ladi. Bayramda bolalar uchun maxsus adabiy qahramonlar qatnashadigan tomosha va

viktorinalar uyushtiriladi. Jumladan, madaniyat va istirohat bog'larida uyushtirilgan kitob bayramida bolalarning sevimli kitoblari va qahramonlari - doktor voy jonim, robin gud, kachal polvon, cheburashka, chipalino, buratino va boshqalar ishtirokida ajoyib teatrlashtirilgan tomosha ko'rsatiladi, so'ngra adabiy o'yin - viktorina avjiga chiqadi. Savollarga to'g'ri javob bergan viktorina g'oliblari adabiy qahramonlar qo'llaridan sovg'a - kitoblar olishadi. Har yili may oyida respublika poytaxti kitobsevarlarining mexmonlar uchun Toshkentdagi she'riyat xiyobonida "Toshkent bahori" - nomli kitob bayramlarini o'tkazish ham yaxshi an'anaga kirmoqda. Bu bayramda o'zbek adiblari, shoirlari kitobxonlar bilan uchrashadilar. O'z ijodiy rejalari haqida gapirib beradilar, savdo xodimlari yangi kitoblarni tayyorlaydilar, markaziy va mahalliy nashriyotlar chiqaradigan kitoblar uchun oldindan buyurtmalar qabul qiladilar.

Xullas, kitob bayrami kishilarda kitoblar dunyosining ma'naviy boyliklariga nisbatan qiziqishini yana ham oshiradi, kitobsevarlar safini kengaytiradi, insoniyat daholari kashf etgan, ijod qilgan adabiy meroslarni o'zlashtirishga kuchli havas uyg'otadi.

Keyingi vaqtlarda maktab bolalari orasida kitob bayraminig o'ziga xos bir turi - "Alifbo" bayrami vujudga kelmoqda va rivojlanmoqda. Bu bayram yaqindagina maktabga ilk qadam qo'ygan birinchi sinf o'quvchilarining "ilm kaliti" - alifbeni o'zlashtirganliklari, harf tanib, kitob o'qishganligiga bag'ishlanadi.

Quvonarlisi shundaki, maktablarda "alifbo" bayrami uni o'tkazish va uni tantanali tashkil etish an'anaviy tus olmoqda. O'quvchilar bu bayramni zo'r qiziqish bilan har yili kutadilar va unga astoydil tayyorgarlik ko'radilar.

Bayramning umumiy jatumani quydagicha: maktabning majlislar zalida katta sinf o'quvchilari, ustoz pedagoglar va taklif qilingan ota onalar o'tirishibdi. Sahna bayram mazmuniga moslab bezatilgan. Unda "alifbe" kitobining katta surati osib qo'yilgan. Bayram davomida esa o'quvchilar "alifbe" kitobidan nimalarni o'rganganliklari haqida gapiradilar. Qiziqarli

savol javoblar, topishmoqlar va tez aytishlar avjiga chiqadi. Kitob va bilimlar, ustozlar haqida qo'shiqlar kuylanadi. Savol- javoblar o'quvchilar olgan bilimni yanada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, o'ziga xos o'yin - imtixon tarzda o'tadi. Bayram so'ngida o'quvchilarga "o'qish kitobi" va "o'zbek tili" darsliklari topshiriladi. O'quvchilar "alifbe" dan olgan bilimlarini ana shu kitoblar yordamida yanada boyitib boradilar. Kitob bayramining asosiy tadbiri sifatida adabiy kompozisiya uyushtiriladi. Unda har bir o'quvchi bir harf obrazini yaratib, u harf nomidan chiqish qiladi. Tadbir oxirida ota onalar so'zga chiqib, farzandlariga ta'lim tarbiya berayotgan o'qituvchi pedagoglarga tashakkur bildiradilar, eng oxirida maktab direktori yoki ilmiy bo'lim mudiri bayramga yakun yasaydi.

Xullas, o'zbek madaniyatining gullab yashnashi, uning barcha asosiy sohalarida erishilayotgan yutuqlar natijasida ilmu fan, adabiyot, san'at, xalq ijodi, sport kabilarga oid an'analar va bayramlarning vujudga kelishi va taraqqiy etilishi tabiiydir. Quyida madaniyatning ko'pgina sohalariga oid respublikamiz hayotida qaror topgan muhim bayramar haqida to'xtalamiz.

"Folklor bayramlari" XX asrning oxirgi choragi faqat ilmiy - texnik taraqqiyotini jadallashtirish emas, balki xalq madaniyati, xalq ijodini rivojlantirishning ham muhim davri bo'ldi. Chunki, 1975- 1977 yillardagi 1 Respublika badiiy havaskorlik festivali, 1985- 1987 yillardagi ikkinchi va 1988 – 1991 yillarda o'tayotgan uchinchi Respublika xalq ijodi festivallari havaskorlik ijodini rivojlantirishda o'ziga xos omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Agar birinchi festival bu sohada o'ziga xos "Muqaddima" bo'lib ko'proq zamonaviy badiiy havaskorlik jamoalari rivojiga muayyan hissa qo'shgan bo'lsa, ikkinchi festival ijod doirasini kengaytirish va an'anaviy xalq marosimiga diqqatni jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Uchinchi festival esa noyob xalq durdonalaini e'zozlashda, har bir millat ijodini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda, xalq ijodiga oid yirik tadbirlarni bayramga aylantirib yuborishda sezilarli ro'l o'ynaydi.

Xalq ijodi shunday bir sohaki, u o'zining an'anaviyligi, qadimiyligi va tarixiyligi bilan barchani qiziqtiradi, u o'zining boyligi, serjiloligi va betakror go'zalligi bilan barchaga yoqadi, u oddiyligi haqqoniyligi, samimiyligi bilan barchaga tushunarlidir.

Xalq ijodi qadimdan bayramlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ham rivojlanib kelgan. Bayram kunlari xalq ijodining eng go'zal namunalari namoyish etilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, xalq ijodi namoyish etilayotgan joydan bayram nafasi kelib turadi. Bayram bo'layotgan joyga esa xalq ijodi betakror fayz kiritadi.

“Boysun bahori”-xalqaro folklor festivali o'zbek san'ining dunyoga yoyilishiga ulkan hissa qo'shmoqda.

Keyingi yillarda xalq ijodi va madaniy - ma'rifiy ishlari respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan uyushtirilayotgan askiya va katta ashulla, dorbozlar, kino havaskorlar, agitbrigadalar, baxshi - shoirlar, folklor etnografik hamda oilaviy ansambllar va boshqa janrlar bo'yicha respublika ko'rik - tanlovlari faqat maskur soha ijodkorlarining anjumanlari bo'lib qolmay balki joylardagi barcha aholining, tomoshabinlarning ham bayramga aylanib ketdi.

II.2. O`QUVCHILARNI AHLOQIY TARBIYALASHDA SINFDAN TASHQARI TADBIRLARNING AHAMIYATI.

- « Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarida madad bo'lgan. Bizning vazifamiz- shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish», -deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining « Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch » asarida.

Biz ham Birinchi Prezidentimizning ko'rsatmalariga amal qilgan holda milliy madaniyatimizni, ma'naviy boyliklarimizni asrashimiz, ularni yanada boyitishimiz, kelajak avlodga bezavol yetkazishda ozgina bo'lsada o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Bunday bebaho xazinani yosh avlodlarga yetkazishda, ularning qalbiga milliy qadriyatlarimizni nsingdirishda biz bo'lajak o'qituvchilarning oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ta'limva tarbiya maskanlarida tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar avvalo biz bo'lajak musiqa o'qituvchilarining oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Maktablarda bayram tadbirlarini tashkil etish, ulardan o'quvchilar qanday ma'naviy ozuqa olishi ko'p hollarda bizga bog'liq. Chunki musiqa o'qituvchisi maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining eng yaqin maslahatchisi, yordamchisi va tashkilotchisidir. Maktablarda tashkil etiladigan bayram tadbirlari asosan ma'lum bir ssenariy asosida tashkil qilinadi. Shu sababli bo'lajak musiqa o'qituvchisi ssenariy yoza bilishi, uni sahnalashtira olishi, raqslarni va qo'shiqlarning kuylarini ijro eta bilishi, bu omillarni o'rgata bilishi, sahna bezagini, zamonaviy texnika vositalaridan foydalana bilishi zarur. Shuningdek, o'quvchilarning qalbiga yo'l topa olishi, tadbirlarning mohiyatini tushunishi, qayerda va qanday tashkillashtirish metodlaridan foydalanish kerakligini bilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi har tomonlama yetuk , bilimli, o'z ishining ustasi bol'mog'i lozim. Tadbirlarga tayyorgarlik ishlari bir oy ilgari boshlanishi, tadbir ishtirokchilarini to'g'ri tanlay bilishi, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yishi, tashkillashtirishda maktab ma'muriyati bilan bamaslahat ish yuritishi,

kerakli libos va jihozlarni ularga tayangan holda tashkil eta olishi, tadbir badiiy jihatdan mukammal bo'lishi uchun boshqa fan o'qituvchilari bilan hamfikir bo'lmog'i, ularning maslahatlarini inobatga olmog'i, hamkasblarini ham bu jarayonga jalb qola olmog'i, xato va kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'rilamog'i, tanqidga yoki rag'batga to'g'ri nazar bilan qaramog'i lozim. Shu bois ham bo'lajak musiqa o'qituvchilari nihoyatda mas'uliyatli va juda ham tirishqoq bo'lishi talab etiladi. O'ylaymizki, kelajakda biz ham ana shunday mas'uliyatni o'z zimmamizga olib, astoydil mehnat qilamiz. Milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga, ularni yosh avlodga bezavol yetkazishda va yanada boyitishga o'z hissamizni qo'shamiz va buning uchun tinimsiz o'z ustimizda izlanishlar olib boramiz va albatta, ishonchingizni oqlaymiz.

Quyida biz pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshirgan sinfdan tashqari mashg'ulotdan namunani havola etishni ma'qul ko'rdik.

Mashg'ulot mavzusi: "Xorazm maqomlari".

Qo'shiq: "Ey mehribonim" Xorazm xalq kuyi, Chokariy she'ri.

Musiqa tinglash: Xorazm Dugoh maqomidan "Pesrav" kuyini tinglash.

Maqsad:

Ta'limiy: O'quvchilarga Xorazm maqomi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: Milliy musiqaga muhabbat, qiziqish uyg'otish.

Jihozlar: 7-sinf darsligi, reja, konspekt, musiqa cholg'u asbobi, (piano, rubob) DVD, CD disklar, tarqatma materiallar, kartochkalar..

Olti maqom nomlarini ayting.

Mushkulot va nasr bo'limining asosiy aytim yo'llari qanday nomlanadi?

O'tgan darsda tinglagan asar mazmunini yoritib bering. So'ngra o'quvchilar ovzini sozlayman.

Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylatish.

Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylatish.

O'rganilgan "Soqinomial safti kalon" qo'shig'ini (xalq kuyi, Bobur g'azali) takrorlaymiz.

Bugun sizlar bilan, yangi “Ey mehribonim” (Xorazm xalq kuyi, Chokariy g’azali) qo’shig’ini o’rgnamiz.

So’ngra qo’shiq mazmuni va asar ijrosi bilan tanishtirib, tahlil qilib musiqiy jumlalarga bo’lib o’rgataman. Bu qo’shiqda insonlardagi bir- biriga mehr muhabbat, g’amxo’rlik, sog’inch haqida kuylanadi. Qo’shiq majo’r tonligida yozilgan, o’rtacha tempda, mayin, ifodali qilib kuylanadi. Endi o’quvchilarga qo’shiqni musiqiy bo’lib o’rgataman.

Shu tariqa qo’shiqni I- kupleti o’rgatiladi.

Bugun sizlar bilan “Xorazm maqomlari” mavzusi bilan tanishamiz. Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarimida qaror topgan bo’lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari asosan, olti maqomdan iborat.

”Rost” maqomi.

“Buzruk” maqomi.

“Navo” maqomi.

“Dugoh” maqomi.

“Segoh” maqomi.

“Iroq” maqomi.

“Panjgoh” (to’liq bo’lmagan olti yariminchi) maqomi.

XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Paxlavon Niyoz Muhammad (tahallusi Komil Xorazmiy 1825-1897) o’zi kashf etgan “Tanbur chizug’i” nomli o’ziga xos nota yozuvi vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni uning o’g’li Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan.

Hozir sizlar bilan birgalikda Xorazm Dugoh maqomidan “Peshrav” kuyini CD diskda tinglaymiz.

So’ngra tinglangan asar yuzasidan savol-javob o’tkaziladi.

Peshrav kuyi qanday mazmunga ega ekan?

Qanday xalq cholg’u asboblari bu kuy ijro etilgan?

Endi, Intervallar haqidagi bilimingizni mustahkamlaymiz.

Interval deb nimaga aytiladi?

Intervallar necha turga bo'linadi?

Sof intervallar nomini ayting.

Katta-kichik intervallarni nomini ayting.

Quyidagi berilgan notalardan yuqoriga qarab raqamlarga monand intervallar tuzing va ovozda mashq kuylang.

Bugun sizlar bilan Xorazm maqomlari, xalq qo'shiqlari va intervallar bilan tanishdik. Uyga vazifa Xorazm maqomlari haqida bilimlarni mustahkamlash. Qo'shiqni o'rganish, intervallarga misollar tuzib kelish.

H U L O S A

Bugungi kunda insoniyat g'oyat chigal va ziddiyatli zamonda yashayapti. Buning ustiga, ezgu g'oyalarni turli g'arazli manfaatlar yo'lida sohtalashti rishga intiluvchilar tobora ko'paymoqda. Oqibatda asl maqsadlar niqoblanib, azaliy qarashlarning ma'nosi atayin chigallashtirilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning « Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch» asari xalqimizning, avvalo, yoshlarimizni ana shunday tahdidlardan ogoh qiladigan , bugungi hayotda nima yaxshiyu, nima yomon ekani to'g'risida o'ylab ko'rishga , dunyoqarashimizni quvvatlantiradigan, hayot falsafasi va ilmiga tashnaligimizni bosadigan, yon-tevaragimizda bo'layotgan voqealar mohiyatini teran anglashiga imkon beradigan manba bo'lib hizmat qilayotganligi bilan g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil O'zbekistonimizning qisqa tarixiy davri shuni ko'rsatdiki, vayronkor, buzg'unchi g'oyalar birinchi galda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan. Buning oldini olish uchun jamiyatimizda, kundalik hayotimizda ta'lim-tarbiyaga, ma'naviy- ma'rifiy ishlarga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor. « Barkamol avlod» yili davlat dasturida aniq belgilanganidek, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, tuban « Ommaviy madaniyat» hurujlaridan himoya qilishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklangan.

Hozirgi davrda « madaniyat» so'zining talqinida ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchisi uning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, unga muvofiq « madaniyat» kishilar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidan iborat.

Bugungi kunda mavjud barcha ta'lim muassasalarida milliy madaniyatimizning ulkan hazinasi bo'lgan musiqiy va qo'shiqchilik sa'natining boy tarixini o'rganish va targ'ib etish muhim ahamiyatga egadir.

Ulug' ajdodlarimiz musiqa va qo'shiqchilik sa'natining inson shaxsini kamol toptirish, oliyijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak

baxo berganlar. Musiqiy madaniyatning barcha turlari kishilarga badiiy-estetik zavq beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar beradi, hayot xaqiqatini badiiy-estetik vositalar orqali idrok etishga yaqindan yordam beradi.

Inson borligini, ma'naviyi taraqqiyotini musiqiy madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik sa'natining boy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar. Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobiyning "Katta musiqiyi kitob" Abu Hamid G'azzoliyning "Diniy bilimlarning tirilishi" asarlarida, Hazrat Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning qator asarlarida ilgari surilgan inson kamoloti to'grisidagi ilgor g'oyalari bugungi kunda g'oyat qimmatli va ibratlidir.

Komillar, ulug' allomalar nazarida so'z iloxiy va muqaddasdir. Qo'shiqchilik san'ati mo'jizaviy va sehrli kuchga ega bo'lgan so'zga ohang vositasida jozibadorlik bag'ishlaydi, uning ta'sir kuchini yanada oshiradi, so'zga yangi hayot beradi. Musiqaning hamohangligi tufayli so'z inson qalbi va shu'rini larzaga keltiruvchi, to'lqinlantiruvchi kuchga aylatadi.

Xalq milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atida xalqimizning uzoq tarixi, orzu-armonlari, hayot xaqidagi bilim va tasavvurlari mujassamlashgandir. Xar bir xalqning ma'naviy salohiyati, jaxon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi uning musiqiy madaniyati bilan belgilanadi.

Vatan tarixi voqea va hodisalar tarixidan iborat emas, balki ma'naviy yuksalish tarixidir. Hozirgi xalqimiz tomonidan asrab avaylab kelinayotgan va abadiylikka daxldor maqom musiqalari, xalq an'anaviy qo'shiqlari donishmand va ijodkor ajdodlarimizning buyuk kashfiyoti, ma'naviyi kamoloti sari tashlangan salmoqli qadamidir.

Shu o'rinda shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinliki, o'zbek xalqining necha asrlardan buyon bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyati durdotalari buguncha kelib to'liq tiklatgan va notalashtirililgan. Bunda marxum ulug' ustozlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Yuz yillar o'tgandan so'ng ham bu meros

yangi-yangi to'ldirilgan ijrolar bilan sayqallatib boraveradi, xalqimizning muqaddas manaviy boyiligi bo'lib qolaveradi. San'atkorning jamiyatda tutgan o'rnini, axvoli va san'atga bo'lgan munosabati jamiyat ma'naviyi salohiyatining o'ziga xos mukofoti sifatida baxolashi bejiz emasdir.

Mustaqillik yillarida ma'naviyi qadriyatlarimizning tiklanishi, musiqiy madaniyatimizning yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik maxoratini xar tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqimizning badiiy-estetik madaniyati, jumladan, musiqiy madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan xar bir san'atkor, xech shubxasiz, o'zi yashagan davr ruhining, muxlislarning estetik didi, ma'naviy ehtiyojlari va salohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirgan, o'z asarlari bilan zamondoshlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xarakat qilgan.

Mustaqillik mafkurasini yaratishda, uning bosh bo'gini bo'lmish ma'naviy madaniyat yoshlar o'rtasida targ'ib etishda musiqiy madaniyatimiz durdonalarini va uning rivojiga salmoqli xissa qo'shgan buyuk sa'natkorlar hayoti va ijodini chuqur o'rganish katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Xullas, mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan hozirgi sharoitda ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan musiqiy madaniyatimizning o'rnini beqiyosdir. Zero, musiqa, qo'shiq xar doim xalqimizning jon ozig'i bo'lib kelgan. Ulug' shoirimiz Gafur Gulom sa'natni „ Odamlarning teng yarimi yuragi joni “ deb ta'riflaganda yoki sevimli shoirimiz Said Zunnunova musiqa sat'atining tarixi xaqiqatni ifodalashda katta imkotiyatga ega ekanligini ta'kidlab shunday yozgan edi:

“Tarixdan so'ylama, menga ey odam, bitta chalib bergin „Cho'li Iroq”ni”.

O'sib kelayotgan yosh avlod, (ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari)ga milliy musiqa merosining yuksak namunasi hisoblanmish maqom musiqasini singdirish orqali ularni “Ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni kuchaytirish va milliy musiqa merosiga yuksak muhabbatni oshirish barcha tarbiyachilar uchun muqaddas vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A.Karimov. //Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. T-t 1998 y “SHarq” nashriyoti.
2. I.A.Karimov. //Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch//. “Ma'naviyat” nashriyoti T-t., 2008 y
3. I.A.Karimov.//Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir// Toshkent -“O'zbekiston”-2015
4. Ibrohimov O.A.//O'zbek xalq musiqa ijodi//metodik tavsiyalar) 1-qism, Toshkent—1994yi.
5. A.Odilov . //O'zbek xalq cholgularida ijrochilik tarixi//. T., “O'qituvchi”, 1995.
6. S. Mannopov//O'zbek xalq musiqa madaniyati//. Toshkent “Yangi avlod”2004 yiil
7. //Buyuk siymolar, allomalar//. T-1995 y A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti
8. A. Tashanov. // Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar// (ma'naviyatga tahdid soluvchi illatlar). Toshkent 2015.
9. S.Q. Yo'ldashev. //Musiqqa tarbiyasi va ta'limning rivojlanishi//. T., 1995 y
10. Omonullaeva D. //Umumta'lim maktablarida musiqa ta'lim tarbiya konsepsiyasi//.
11. D. Soipova. //Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish//. T-t , 2005 y
12. A.Xasanov. //Musiqqa va estetik tarbiya// T., “O'qituvchi” 1993 y
13. //Xalq ta'limi// jurnali.2005 yil 4-son
14. //Xalq ta'limi// jurtali 2009 yiil 2- son.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-39 Qarori. « Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi»
16. Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida : O'zbekiston Prezidentining Farmoni. T., 1997 yil.

17. U. Qoraboyev. // Madaniy tadbirlar // T., 2009 yil .
18. U. Qoraboyev. « O`zbekiston bayramlari». T., « O`qituvchi», 1991 yil 192 bet.

INTERNET RESURLAR:

1. [http:// www. balletart. ru/ rus/ 2006/ img/bo6_ 06_3.jpg](http://www.balletart.ru/rus/2006/img/bo6_06_3.jpg)
2. [http: // img-fotki.yandex.ru/get/ 4703/dioseya.26/0_482 C4_4f175f16_1](http://img-fotki.yandex.ru/get/4703/dioseya.26/0_482_C4_4f175f16_1)
3. <http://www.tdpu.uz>
4. <http://www.pedagog.uz> <http://www.ZiyoNet.uz>

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-8
I- BOB. «Ommaviy madaniyat» va unga qarshi ma'naviyat choralari.	
I.1. « Ommaviy madaniyat»ning kelib chiqishi va uning salbiy ko`rinishlari.	8-33
I.2. O`quvchilarga “shashmaqom” haqidagi tushunchalarni singdirish orqali milliy musiq merosiga muhabbatni oshirish.	34-52
II. BOB. Milliy qadriyatlarni singdirishda bayram va marosimlarning o`rni.	
II.1. Yuksak ma'naviyatli yoshlarning milliy o`zlikni anglashida ma'naviy qadriyatlarnig ahamiyati.	53-76
II.2. O`quvchilarni ahloqiy tarbiyalashda sinfdan tashqari tadbirlarning ahamiyati.	77-80
XULOSA	81-83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	84
ILOVALAR	





YOZ

M. To'g'ayeva
she'ri

Nodira G'ofurova
musiqasi

Kel - di yu - ni yoz, O' - yin bo' - lir soz,

Qu - ysh chu - niq lir, O' - mon yu - niq lir,

O'y - nab to'y - may mir, Qo' - shiq kuy - lay - mir,

O' - lir qiy - noq yoz, Ma - ni shum - day soz,

Tuproq ustida,
Uycha rostlar qad,
Qum minoralar
Ko'rkam va baland.

O'ynab to'ymaymiz
Qo'shiq kuylaymiz
O'tar qaynoq yoz
Mana shunday soz.

SALOM MAKTAB

Qadam G'oyib

Nodira G'ofurova

Ya - na kel - dik bag' - rin - ga biz sa - lom mak - tab jo - na jon,

5 Qu - bul et - gin far - zand - la - ring ey meh - ri - bon o - na - jon.

9 Bi - lim o - lib qu - cho - g'ing - da ya - shay - miz shod bax - ti - yor,

13 Bag' - ring - da - gi lo - la - lar - miz O'z - be - kis - ton gul di - yor

Murabbiylar berib ta'lim,
O'rgatadi bizga ilm.
Ulg'aytirib o'stiradi,
Charog'on aylab yo'ling.

Salom maktab yana keldik,
Bizni shodon kutib ol.
Biz yoshlarmiz kelajakmiz,
Kutar porloq istiqbol.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҚўМИТАСИ
РЕСПУБЛИКА ҲАМДА ВИЛОЯТ “ОЛИМА” УЮШМАСИ
АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҚўМИТАСИ

“ЁШЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР, КЕКСА АВЛОДГА ҲУРМАТ ВА ЭҲТИРОМ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ”

мавзусидаги илмий-амалий
конференция материаллари



5- чиқиш

КОМИЛ ИНСОНИ ТАРБИЯЛАШДА МУСИҚА МАДАНИЯТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

кат. ўқит. Қ.Нурдинов АДУ
Н.Гофурова АДУ талабаси

Мустақиллик туфайли мамлакатимизда янги авлод тарбиясига катта аҳамият берилаётганлиги бежиз эмас. Зеро, маънан бой, интеллектуал салоҳияти юкори бўлган ёшлар келажакда Ватан тараққиётининг асосчилари бўлишлари шубҳасиз. Мусиқа маданияти тарбиясининг мазмун ва моҳияти заминиди баркамол авлод, комил инсон тарбияси ётади. Ёшларда комиллик элементларини, инсоний фазилатларни умумий ўрта таълим мактабларида, ўқув фанлари машгулотларида, қолаверса, синфдан ташқари таълим жараёнида ҳам шакллантириш ва ривожланиши табиий.

Мусиқа шундай воситаки, у янги авлод тарбиясида муҳим аҳамият касб этади, инсон руҳий оламига бевосита таъсир кўрсатади, тингловчи дунёқарашини шакллантиради. Айни чоқда, у инсоннинг маънавий эҳтиёжларини қондиради, ҳис-туйғуларини бойитади. Инсон ҳаётида кўшиқнинг ҳамиша ўз ўрни, ўз вазифаси мавжуд. У эрмакка тўқилмаган, ҳавасга айтилмаган, бекорчиликдан эшитилмаган: кўшиқ кишиларни яшашга, курашга чорлаган, меҳнатга, муҳаббатга руҳлантирган, дарду қайғусига малҳам, бахту қувончига шерик бўлган. Кўшиқнинг халқ орзу-армонларининг ифодаси, халқ руҳиятининг кўзгуси ҳисобланиши шундан. Комил инсонни шакллантиришда мусиқа тарбиясининг аҳамияти бекиёсдир. Мусиқа тарбияси инсонни гўзалликни ҳис қилишга ўргатади, гўзаллик туйғусини тараққий эттирмай туриб, комил инсон ҳақида гапириб бўлмайди. Токи одамзод ўзини қуршаб турган ташқи оламда, ўзи яшаётган жамиятда, ўзи билан мулоқотда бўлаётган кишиларда тарихан шаклланган ва муайян даврда амал қилинаётган бадий ижод намуналарида мужассамлашган гўзалликни ҳис қила олмас экан, ҳеч қачон маънавий баркамол инсон даражасига кўтарила олмайди. Мусиқа ана шу нозик туйғуларни шакллантириш ва тарбиялашнинг қудратли воситаларидан биридир. Шахсни камол топтиришда мусиқа маданиятининг ўрни ва аҳамиятини очиб бериш, биринчидан, инсон ва унинг моҳияти масаласини, иккинчидан, маърифатлилиқ кўламинини, учинчидан, маънавий камолотда мусиқа эга бўлган имкониятларни аниқлаш демакдир. Шарқ мутафаккирлари мусиқага доир алоҳида рисолалар ёзиб қолдирганлар. Улар Шарқ мусиқа маданияти ва унинг ўзига хос бадий-эстетик ва тарбиявий моҳияти ҳақида ажойиб фикр-мулоҳазалар баён этганлар. Шарқнинг буюк мутафаккирлари Абу Наср Форобий, Алишер Навоий, Иби Сино, Аҳмад Юғнакий, Беруний, Рудакий, Замахшарийлар мусиқа санъати орқали инсонни тарбиялаш, унинг руҳиятига улкан таъсири борасида қимматли фикрларни ёзиб қолдирганлар. Абу Наср Форобий мусиқа илмини келтириб чиқарган сабаблар хусусида ёзар экан, мусиканинг ахлокий-тарбиявий жиҳатларига диққатни жалб этади. “Мусиқа фани шу маънода фойдалики, кимнинг феъл-атвори мувозанатини йўқотган

маънода фойдалики, кимнинг феъл-атвори мувозанатини йўқотган бўлса, тартибга келтиради, камол топмаганларни камолга етказди ва мувозанатда бўлмаганларнинг мувозанатини сақлайди. Бу фан танининг соғлиги учун ҳам фойдалидир, чунки тан касалга учраса, рух ҳам сўлийди, ожизланади, тан қийинчиликка учраса, рух азобланади. Шу сабабли тани соғломлаштириш учун рухни даволамоқ даркор, овозларнинг таъсири билан руҳий қувватлар ўзига уйғунлашади ва тартибга, мувозанатга келади”, дея айтган эди. Форобий мусиқанинг ривожланиш босқичларини, унинг инсон руҳига у ёки бу ҳолда таъсир қилишини, маънавий озик бериб, уни яхши ишларга руҳлантиришини, хурсандчилик ва қайғуда одамга ҳамдам бўла олишини ва, ниҳоят, мусиқа одамни катта ишларни амалга ошириш учун курашга чорлай олишини башорат қилган.

Мусиқа ҳар даврнинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-мафкуравий ҳаётининг муҳим ва таъсирчан воситаси бўлиб келган. Мусиқа асарлари халқнинг маънавий эҳтиёжларининггина қондириб қолмай, балки кишиларнинг мавжуд ижтимоий тузумга, жамиятга, ҳаётнинг салбий ҳодисаларига нисбатан бўлган қарашларини ҳам акс эттирган.

Комил инсонни шакллантиришда мусиқанинг аҳамияти ҳақида гап кетганда шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, мусиқа асарларининг инсонда гўзаллик, улугворлик, кўтаринкилик, тушқунлик, ғамгинлик, ҳазинлик, маъюслик сингари туйғуларни уйғотувчи хусусиятлари мавжуд ва худди мана шу жиҳатлари орқали инсон маънавиятига таъсир кўрсатади. Бундан ташқари, мусиқа инсоннинг умуман ҳаётга бўлган эстетик муносабатларини кучайтирди ва позитивлаштирди. айниқса ёшларнинг истеъдодини рўёбга чиқариш, ахлоқан покланиш, ҳаётга мослашини, бирор касб-ҳунар эгаси сифатида ижтимоий фаоллашишига ёрдам беради.

“Шашмақом”дек буюк мусиқий мерос билан бир қаторда жаҳон мумтоз мусиқаларини ёш авлод онига сингдириш барчамиз учун муқаддас вазифалардан бири бўлмоғи шарт. Мусиқа инсон руҳининг йўлдоши бўлиш билан бир қаторда у инсонни комилликка етаклашда асосий омил вазифасини ўташи шубҳасиз.



*"Mutaffakkirlarning bisotini o'rganish bizni yuksaklikka ko'tarib oliyjanoh
insonga aylantiradi". I.A.Karimov*

Tarix zarvaraqlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, sharq allomalarining naqadar buyuk ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, ularning fikrlari bilan tanishish miya uchun tengsiz mashq: aqlga-aql qo'shadi va fikrni charhlaydi. Sharq allomalari va olimlari hayotiga nazar tashlaganda, ularning musiqadan yaxshi habardor bo'lganliklarini ko'ramiz, jumladan: Abu Nasr Forobiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy asarlarida musiqaga oid ko'p qimmatli fikrlar bor.

Mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondalaridan biri Rudakiy ud chalishda, Nosir Xusrav g'ijjak chalishda, Firdavsiy chang chalishda shuhrat topgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqarolar musiqa nazariyasiga oid asar yozib kuy bastalashgan. Boburning musiqaga qo'ygan talabi she'riyatga munosabati singari izchil bo'lgan. Uning bu sohaga oid qarashlari bilan, Navoiyning estetik munosabatlari orasida hamohanglik bor. Navoiyning kishilarda musiqa havasini orttirish ulardagi musiqa olami zavqi, sehridan bahramandlikni tarbiyalashdagi ishlarini Bobur davom ettirgan. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida musiqaning jozibasi, sehri haqida shunday yozadi: "Xushxun mug'anniydin dard ahlining o'ti tezdur, agar malohati bo'lsa, hol ahliga rustohezdur. Har mug'anniyki, dardmando noroq nag'ma cheker, aning nag'masi zahliq yurakka korgarroq tegar", ko'rinib turibdiki ulug' shoir yoqimli kuy va hushovoz honandani ta'riflayotir. Demak, samimiy, yuksak nafasat bilan yaratilgan kuygina kishi ruhining ozig'i bo'la oladi. Zahiriddin Boburni ham musiqa masalasi doimo qiziqtirib kelgan. "Boburnoma"da bunga keng o'rin berilgan. Bobur tasvirlagan musiqa bilimdonlaridan biri Husayn Udiy bo'lib, "Udni mazali cholib, mazaliq nimalar aytur edi". Bu qarash san'atkor ijrosidagi asar malohati bo'lsa, "Hol ahlig'a rustohezn" vujudga kelishini qayd etganki, o'z navbatida bu Navoiy qarashiga to'g'ri keladi. Bobur Pahlavon Mahmudni ham ta'riflagan. Uning takidlashicha, Pahlavon tug'ma musiqiy qobiliyat egasi. Shu bilan birga u hushovoz xonanda bo'lib, g'azallariga o'zi kuy bastalab, o'zi ijro etgan. Navoiy esa Pahlavon Mahmudning chorgoh amalida kuylashini maqtab: "Xuroson mulkida balki Samarqand va Iroqda homul ishni bilur go'yanda yo'qdur" deydi va uning nomi xalq yodidan chiqmasligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo'lgani bois, "Sharq Aristoteli" deb ataganlar. U ko'plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari "Mohiyat xususida so'z", "Fanlarning paydo bo'lishi haqida kitob", "Tafakkur mohiyati" va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko'plab Yevropa va sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda. Forobiy ham musiqani inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omillardan biri deb bilgan. U musiqaning insonga nafasat, estetik zavq bag'ishlovchi

his tuyg'ulari va axloqini tarbiyalovchi muhim vosita deb hisoblaydi. Mutaffakkir "Musiqqa haqida katta kitob" nomli ko'p jildli asarida musiqqa nazariyasi va tarixi, turli musiqiy asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot berdi, ilmi iyqo, ilmi ta'lil fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarlarida o'tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligini alohida qayd etadi. Shuningdek kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari haqida so'z yuritadi. Rivoyatlarda keltirilishicha Forobiy yangi musiqqa asbobini yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Forobiyning aytishicha: "Musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan chaqnab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi"- deydi.

O'sha davr musiqqa tarixi va san'atining taraqqiyoti ustoz-shogirdlik an'analari mavjudligi, san'atkor ahloqi, uning o'z kasbiga munosabati ajdodlarimiz ma'naviyatining bosh mezon bo'lgan. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, xalq musiqasining hozirgi kunga qadar rivoj topib kelishi va paydo bo'lishida sharq allomalarining o'rni beqiyos desak adashmagan bo'lamiz. Zero, musiqqa inson ruhining yo'ldoshidir.



